

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**TARIX FAKULTETI**

**TARIX TA'LIM YO'NALIS'HI**

**«O'ZBEKISTON TARIXI» KAFEDRASI**

## **« BUXORO AMIRLIGIDAGI SAVDO MUNOSABATLARI TARIXIDAN»**

### ***MALAKAVIY BITIRUV ISHI***

**Bajaruvchi: Norqulov Azamat**

**Ilmiy rahbar: Katta o'qituvchi Sattarova I. G.**

Malakaviy bitiruv ishi "O'zbekiston tarixi" kafedrasida bajarildi.  
Kafedraning 2017 yil \_\_\_\_\_ majlisida muhokama qilindi  
va himoyaga tavsiya yetildi. (bayonnoma №\_\_\_\_\_).

**Kafedra mudiri:**

**dos.R.Sh.Holiqulov**

Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2017 yil \_\_\_\_\_ iyundagi  
majlisida himoya qilindi va \_\_\_\_\_ foizga baholandi (bayonnoma №\_\_\_\_\_)

**YaDAK raisi:**

**A'zolari:**

---

---

---

---

---

## **M U N D A R I J A**

|               |                                                                                                                         |              |
|---------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------|
|               | <b>Kirish.....</b>                                                                                                      | <b>3-8</b>   |
| <b>1-Bob.</b> | <b>Buxoro amirligining ichki savdo munosabatlari, hamda Qo'qon va Xiva xonliklari bilan tashqi savdo munosabatlari.</b> |              |
| <b>1.1.</b>   | <b>Buxoro amirligida ichki savdo munosabatlari.....</b>                                                                 | <b>9-14</b>  |
| <b>1.2.</b>   | <b>Buxoro amirligining Qo'qon va Xiva xonliklari bilan savdo munosabatlari.....</b>                                     | <b>40-46</b> |
| <b>2-Bob.</b> | <b>Buxoro amirligining Sharq mamlakatlari va Rossiya bilan tashqi savdo munosabatlari.....</b>                          |              |
| <b>2.1.</b>   | <b>Buxoro amirligining Afg'oniston va Hindiston bilan tashqi savdo munosabatlari.....</b>                               | <b>47-50</b> |
| <b>2.2.</b>   | <b>Buxoro amirligining Xitoy va Eron bilan tashqi savdo munosabatlari.....</b>                                          | <b>51-52</b> |
| <b>2.3.</b>   | <b>Buxoro amirligining Rossiya imperiyasi bilan tashqi savdo munosabatlari.....</b>                                     | <b>53-56</b> |
|               | <b>Xulosa.....</b>                                                                                                      | <b>51-52</b> |
|               | <b>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....</b>                                                                          | <b>53-56</b> |

## KIRISH

Mustaqillik yillarida jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida bo'lganidek, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy yo'nalishlarda ham milliy o'zligimizni anglash, davlatchiligimiz tarixining noma'lum sahifalarini qaytadan o'rganish, asossiz ravishda unitilgan davlat arboblارimiz hamda tafakkurlarimizning boy ilmiy ijodiy me'rosini yoritish bilan bog'liq izlanishlarga keng yo'l ochildi. Ta'kidlash joizki, o'zbek xalqining tarixiy-madaniy me'rosida davlatchilikka bag'ishlangan asarlar salmoqli o'rin egallaydi. Ana shunday tariximizni, me'rosimizni haqqoniy o'rganish, ularni ilmiy tahlil qilish bugungi kunimizning dolzarb vazifalaridan biridir. Bu masalada Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: «Bugun kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo'lyozma, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me'morchilik, dehqonchilikka oid 10 minglab asarlar bizning beqiyos ma'naviy boyligimiz, iftixorimizdir. Ota-bobolarimizning asrlar davomida to'plangan hayotiy tajribalari, diniy, axloqiy, ilmiy qarashlarini o'zida mujassam etgan bu nodir qo'lyozmalarni jiddiy o'rganish davri keldi»<sup>1</sup>.

Darhaqiqat, bugungi kunga kelib, o'zbek milliy davlatchiligini tadqiq etish va ilmiy jihatdan o'rganish respublika tarixchilari oldida turgan dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'biri bilan aytganda: «O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Isbottalab bo'lmagan ushbu haqiqat davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi zarur»<sup>2</sup>.

O'zbekiston davlatchiligi boy tarixga ega bo'lib, uning uzoq davrlar davomida tarkib topgan nazariy-huquqiy tajribalarni zamonaviy, demokratik huquqiy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish va jamiyatimiz turmushida ulardan yanada kengroq va samaraliroq foydalanish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Shu bois xalqimizning boy ilmiy ma'naviy merosini,

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз кўлимиз билан қураимиз. Т.7.-Тошкент. Ўзбекистон, 1999.-Б.132-133

<sup>2</sup> Ўша асар. –Б. 134.

xususan milliy davlatchiligimiz tarixida o'ziga xos davlat hisoblangan Buxoro amirligining savdo-sotiq va diplomatik aloqalari tarixini milliy istiqlol mafkurasi talablaridan kelib chiqqan holda o'rganishga, hozirgi kunda O'zbekiston davlati tarixi va fani oldida turgan eng muhim masalalardan biri sifatida qaralmoqda.

O'rta Osiyo davlatlari uzoq davrlar mobaynida Xitoy, Hindiston, Eron, Afg'oniston va Sharqdagi boshqa mamlakatlar hamda Rossiya davlati bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarda bo'lib keldilar. Xonliklarning o'zaro va tashqi davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy va boshqa sohalardagi aloqalari turli davrlarda turlilik kasb etib, murakkablashib boradi. Ayniqsa, XIX asrning o'rtalariga kelib, xonliklarga nisbatan tashqi xavf – Rossiya imperiyasining bosqinchilik xavfi kuchayib boradi. Bir tomondan xonliklarning ichki nizolar oqibatida siyosiy inqirozga yuz tutishi, ikkinchi tomondan Rossiya imperiyasining xonliklar hududlariga harbiy bosqinchilik yurishlarining kuchaytirilishi umumiy ahvolning yanada murakkablashuviga olib keldi. Bu holat nafaqat o'z vaqtida jahon siyosatchilarining diqqatini, balki ko'plab tarixchilarining diqqatini ham o'ziga jalb etadi.

Ma'lumki, XVIII asr o'rtalarida Buxoroda sulolaviy almashinuv natijasida Mang'itlar sulolasi hukmronligi o'rnatilib, Buxoro amirligi vujudga kelgan. Mazkur malakaviy bitiruv ishida Buxoro amirligining ichki va tashqi jumladan Xitoy, Hindiston, Eron, Afg'oniston va Rossiya bilan iqtisodiy savdo aloqalari hamda diplomatik masalalari o'rin olgan. Ushbu malakaviy bitiruv ishini yozishda mahalliy manbalardan va rus sayyohlari, diplomatlari va elchilarining bergan ma'lumotlaridan, nashr qilingan rus va o'zbek tilidagi kitoblardan keng foydalanildi.

Tadqiqot ob'ekti – Buxoro amirligining ichki va tashqi savdo munosabatlarining rivojlanishining omillari va bu munosabatlarning o'ziga xos jihatlari bo'lsa, predmeti esa amirlikning ichki savdo munosabatlari, hamda qo'shni va chet el mamlakatlar bilan savdomunosabatlari xolis o'rganib, tahlil qilish.

Tadqiqotning xronologik ko'lamı XVIII o'rtalaridan XX asr 20-yillariga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Buxoro amirligi tarixi bilan qiziqib, uni tadqiq qilgan olimlar juda ko'p bo'lib, Buxoro amirligining ichki va tashqi savdo munosabatlari bo'yicha: Борнс А. “Путешествие в Бухару”, Бунаков Е.В. “К вопросу о сношениях России с среднеазиатскими ханствами в XIX в.”, Махкамов А.А. “Торговля Коканда со среднеазиатскими владениями и сопредельными странами в первой половине XIX в.”, Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару”, Михалева Г.А, “Узбекистан в XVIII первой половине XIX века ремесло, торговля и пошлины”, Мухаммаджонов А.Р., Неъматов Т.Н. “Бухоро ва Хеванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар” va boshqa asarlarda ma'lumotlar uchraydi.

Mavzu manbashunosligi haqida ham yuqoridagidek fikr yuritish mumkin. Tarixda ma'lum bir tarixchilar o'z zamonasining hukmdoriga bag'shlab tarixiy asar yozishgan, shuningdek mang'itlar sulolasi tarixini bayon etuvchi XVIII asr oxiri va XIX asrda o'z davrining mashhur tarixchilari tomonidan asarlar yozilgan. Ularda Buxoro amirlarining hukmronligi, ular davrida kechgan savdo munosabatlar haqida qimmatli ma'lumotlar aks etgan. Buxoro amirligi tarixi bo'yicha muhim ma'lumotlarni beruvchi manbalar sifatida birinchi navbatda Muhammad Yoqub ibn Doniyolbiyning “Gulshan ul-muluk”, Mirzo Abdulazim Somiyning “Tarixi salatin mang'itiya”, Ahmad Donishning “Mang'itlar sulolasi tarixi haqida risola” kabi asarlarni olishimiz mumkin. Bundan tashqari 1790-yilda O'rta Osiyoda bo'lgan mitropolit Xrisanf Novopatrasskiy (Kontarini), 1794-95-yillarda Buxoroda bo'lgan rus vakillari T.S.Burnashev, A.S. Beznosilov va boshqa elchi, sayohatchilarning qoldirgan esdaliklarida Buxoro davlati, undagi savdo munosabatlariga doir ozmi ko'pmi ma'lumotlar bo'lib, ulardan tadqiqot uchun muhim manba sifatida foydalanamiz.

Sobiq ittifoq davrida o'zbek xonliklari davri qabohat, siyosiy, iqtisodiy, madaniy qoloqlik, diniy mutaassiblik hukm surgan davr sifatida talqin qilinar

edi. O'sha davr hukmdorlari haqida so'z ketganda chala savod, fikri hayoli xalqni ezish, uni ekspluatatsiya qilish o'ylari bilan band bo'lgan kaltabin shaxslarni gavdalandirishga harakat qilinardi.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng, tarixchi olimlarimiz oldiga sovet davrida "qoralangan" tariximizni xolisona o'rganib, uni tahlil qilish orqali asl holicha to'g'ri yoritish kabi muhim vazifalar quyildi va bu borada ko'plab ijobiy ishlar amalga oshirildi. Buning natijasida O'zbekiston tarixi fani o'lgan yutuqlarga erishdi, hatto buni YUNESKO tashkiloti, yirik ilm-fan va madaniyat markazlari, ko'pgina chet el tarixchi olimlari e'tirof etishdi. Mavzuning amaliy ahamiyati ham yuqoridagi fikrlar bilan chambarchas bog'liq.

Buxoro amirligining savdo munosabatlari tarixi ham nafaqat O'zbekiston yoki Markaziy Osiyo tarixida, balki Sharq mintaqasida ham alohida o'rin egallaydi. Bundan tashqari O'rta Osiyoning Rossiya bilan diplomatik savdo aloqalari tarixida ham muhim jihatlari bilan boshqa davrlardan ajralib turadi. Savdo munosabatlari yurtimiz tarixining muhim jihatlaridan biri, O'rta Osiyo qadimgi davr mintaqaviy savdo yo'llari la'l va shoh yo'llarida faol qatnashgan, buyuk ipak yo'li mavjud bo'lgan davrda esa yetakchi o'rin egallagan. Xonliklar davrida ham savdo munosabatlari buyuk ipak yo'li inqirozga uchrasa ham taraqqiy etishda davom etdi. Buxoroda taxt uchun kurashlar, separatistik nizolar, Eronning bosqinchiligi tufayli savdo munosabatlar zaiflashib qolgan edi. Buxoro amirligi vujudga kelgach savdo munosabatlari yana rivojlanib taraqqiy etdi va bu O'rta Osiyo uchun muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbekiston tarixi, xususan O'rta Osiyo tarixida muhim o'rin egallagan Buxoro amirligining savdo munosabatlari tarixini har tomonlama, ayniqsa bugungi kunimiz uchun ibratli jihatlarini o'rganib, tahlil qilib, uni tadbiiq etish tadqiqotning muhim maqsadi bo'lib xizmat qiladi. Ishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Buxoro amirligi ichki savdo munosabatlari haqida ma'lumot berish;

- Buxoro amirligining savdo munosabatlarini rivojlanishining omillarini tahlil qilish;
- Buxoro amirligining tashqi savdo munosabatlarining o'ziga xos jihatlarini yoritish;
- Tadqiqot yuzasidan umumiy xulosalarni yoritib berish.

O'rganilayotgan malakaviy bitiruv ishi kirish, 2 bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Bitiruv ishining 1-bobi Buxoro amirligining ichki savdo munosabatlari, hamda amirlikning Qo'qon va Xiva xonliklari bilan olib borgan savdo aloqalariga bag'ishlangan. Bu bobda XVIII asr o'rtalarida Buxorodagi savdo munosabatlarning zaif ahvolga kelganligi va buning sabablari, savdo munosabatlarning rivojlanishiga berilgan e'tibor va savdo sohasini rivojlantirishning omillari o'rganilgan. Bundan tashqari Buxoro amirligining ichki savdosining XIX asr davomida taraqqiy etishi ham o'rganilgan. Shuningdek mazkur malakaviy bitiruv ishida Buxoro amirligining XVIII asr II yarmi va XIX asr davomida Qo'qon va Xiva xonliklari bilan bo'lgan savdo aloqalari manbalar asosida yoritilgan.

Ma'lumki, hunarmandchilik amirlik shaharlarining iqtisodiy hayotida muhim ahamiyatga ega edi. Hunarmandchilikning asosiy turlaridan biri to'qimachilik bo'lgan. Buxoro olachasi, bo'zi, bo'zga gul bosish yo'li bilan tayyorlanadigan chiti, shoyisi, Samarqandning to'q qizil rangli baxmali mashhur edi. Yigirilgan ipdan ro'mol, choyshab, salla to'qish ham keng tarqalgan. Hunarmandchilik ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlaridan yana biri — temirchilik va miskarlik bo'lib, o'roq, pichoq, shuningdek, qurol-yarog' yasashgan. Temirchilar qilich, xanjar, oybolta, nayza, qalqon, kamon va uning o'qini yasash edilar. To'plar yasash ham yo'lga qo'yilgan. Zargarlik, kulolchilik, yog'ochsozlik ham muhim soha hisoblangan. Yog'ochdan eshik, beshik, deraza, arava, sandiq, qayiq va boshqalar yasalardi. Yog'och o'ymakorligi alohida ahamiyatga ega edi. Novdalardan savatlar to'qilardi. Uy sharoitida namat, gilam

to'qish, oshlangan charmdan egar-jabduqlar, ayillar, pichoq qinlari, hamyonlar tikish ham keng rivojlangan. Lekin davlat hayotida iste'mol ehtiyojlari ishlab chiqarishdan ustun bo'lmadi. Bu esa o'z navbatida, yuqori mehnat unumdorligini ta'minlovchi yirik mashinalashgan ishlab chiqarishdan foydalanish ehtiyojini vujudga keltirmadi. Natijada, oddiy hunarmandchilik ishlab chiqarishi manufaktura ushlab chiqarishi darajasiga ko'tarilmadi. Shuning uchun ham ichki bozorda odatdagi hunarmandchilik va qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi yetakchi o'rin egallagan.

O'rta Osiyo, xususan, Buxoro bozorlari faqatgina xo'jalik vazifasini o'tab qolmagan. Ular ayni paytda o'ziga xos jamoat va madaniyat markazi vazifasini ham bajargan. Xususan, bozorlarda hukmdorning farmonlari o'qib eshittirilar, aybdorlar jazolanar, bayram kunlari esa turli tomoshalar ko'rsatilar edi. Savdo-sotiq markazi Buxoroda 1848-yilda 38 ta karvonsaroy, 9 ta tim va ko'plab bozorlar mavjud bo'lgan.

Buxoro amirligining Xiva va Qo'qon xonliklari bilan olib borgan savdo munosabatlariga qisqacha to'xtalib o'tadigan bo'lsak, Buxoro amirligi siyosiy jihatdan qo'shnilari Xiva hamda Qo'qon xonliklari bilan ko'p hollarda kelishmagan bo'lsada, bu vaziyat ushbu mamlakatlar o'rtasidagi savdo munosabatlarining to'xtab qolishiga sabab bo'la olmaganini guvohi bo'lamiz. Buxoro amirligi bilan Xiva xonligi o'rtasida bo'lgan savdo munosabatlari haqida bildirish mushkul. Chunki Xiva xonligida savdoga bo'lgan e'tibor boshqa O'rta Osiyo davlatlaridagiga qaraganda kuchli bo'lmagan. Buxoro bozorlarida Xiva savdogarlari ko'p bo'lmagan. Xiva savdogarlari Orengburgga Buxoro hududi orqali ham o'tishgan. Lekin Buxoro amirligi Xiva xonligiga nisbatdab Qo'qon xonligi bilan savdo aloqalari anchayin yaxshi yo'lga quyilgan edi. Buxorodan Qo'qonga ipak matolar, qorako'l terisi, hind baqqollik mollari, mal-mal, kobul kamarlari va sallalari keltirilgan. Qo'qon aholisi orasida asosan tilla yoki kumush bilan to'qilgan kimxob ipak matosiga talabgor bo'lgan. Uning eni bir arshin bo'lib, 10 tillodan 45 tillogacha sotilgan.

Ishning 2-bobida Buxoro amirligining Sharq mamlakatlari va Rossiya bilan tashqi savdo munosabatlari deb nomlanadi. Unda Buxoro amirligining Afg'oniston, Hindiston, Eron va Xitoy bilan savdo munosabatlari yoritilgan. Buxoro amirligining Sharq mamlakatlari bilan savdo aloqalari ikki xil xarakterni kasb etadi, ya'ni Buxoro amirligi Afg'oniston va Hindiston bilan faol savdo munosabatda bo'lgan bo'lsa, Eron va Xitoy bilan esa buning aksi. Albatta bunga juda ko'p sabablar va faktorlar mavjud. Buxoroning Afg'oniston va Hindiston bilan savdo munosabatlarining faolligi haqida gapiradigan bo'lsak, bu hududlar bilan uzoq vaqtdan beri yaxshi savdo munosabatni yo'lga quyib kelgan, bundan tashqari Buxoro amirligi uchun Hindistonga yo'l Afg'oniston hududidan o'tgan edi, shuni ham ta'kidlash lozimki Buxoro amirligining Rossiya va Afg'oniston o'rtasida vositachilik rolini o'ynashi ham savdo munosabatlar ko'lamining kengayishiga va rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Buxoro amirligining Xitoy va Eron bilan savdo aloqalarining zaiflashuvi to'g'risida so'z yuritadigan bo'lsak, bunda Buxoro amirligi va Xitoy o'rtasida savdo aloqalarning rivojlantirishga manfaatdorlikning kamligi, Buxoroning Xitoydan ko'ra Rossiya va Hindiston bilan savdo aloqani kuchaytirish qulay bo'lganini, amirlikning Eron bilan siyosiy munosabatlarning salbiyligi, o'rtadagi hududiy va diniy nizolar ikki davlat o'rtasidagi savdo munosabatlarning juda salbiy ta'sir ko'rsatganligini kuzatamiz.

Buxoro amirligining Rossiya savdo munosabatlarini o'rganib chiqish ham juda ahamiyatli, zero O'rta Osiy xonliklari savdo munosabatlarida Rossiya ham katta rol o'ynagan. XVIII asr II yarmidan boshlab, Rossiya savdo-iqtisodiy aloqalarida O'rta Osiyo xonliklari, xususan, Buxoro amirligining ahamiyati ortib bordi. Bunda birinchidan, Rossiyada rivojlanib borayotgan sanoat uchun xomashyo manbalarni topishga intilish, ikkinchidan, Osiyoda, ayniqsa Hindistonda Angliya ta'sirining kuchayib borayotganligi sabab bo'lgan. O'z navbatida bunday tashqi savdo aloqalardan Buxoro amirligi ham juda katta

manfaatdor edi. Chunki bu paytda amirlikda iqtisodiy ko'tarilish natijasida shaharlarning o'sishi va ishlab chiqarish korxonalarning, ayniqsa, degrezlik korxonalarining kengaygan, buning oqibatida po'lat, cho'yan, mis, temir kabi metallarga ehtiyoj ortib borgan. Amir Shohmurod va Amir Haydar davrida juda katta miqdorda tanga pullarning zarb etilishi tufayli kumush, hamda oltinga bo'lgan ehtiyojning ma'lum bir qismi Buxorolik savdogarlari tomonidan Rossiyadan keltirilgan oltin va kumush bilan qoplanganligi ham tarixdan ma'lum.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, XVIII asr II yarmi XIX asr boshlarida yuz bergan Buxoro amirligi va Rossiyaning diplomatik-savdo aloqalari o'zaro hurmat va tenglikka asoslangan edi. Buxoro amirligida rus savdogarlari karvonsaroylarda maxsus qulay sharoit bilan ta'minlangan, Rossiya ham o'z navbatida buxorolik savdogarlarini yaxshi kutib olgan va ularga g'amxo'rlik qilgan. Rossiya o'zi uchun qulay aloqalarni saqlab turish maqsadida Buxoro bilan samimiy munosabatda bo'lishga harakat qilgan. Buxoro amirligi esa nafaqat o'z manfaatdorlik yuzasidan Rossiya bilan savdo aloqani rivojlantirishga e'tibor bergan, balki bu munosabatlarda o'zining xolisona bag'rikengligini ham namoyon etgan. Mazkur davrda kechgan Buxoro amirligi va Rossiya davlati bilan savdo va diplomatik aloqalari O'rta Osiyo va Rossiya hududlarining o'zaro savdo, hamda diplomatik aloqalari tarixida o'zining yuqori cho'qqisiga yetgan edi. Keyingi davrlarda Rossiya g'arazli maqsadlar bilan O'rta Osiyoga intilib bosqinchilik yurishlarini amalga oshirdi, Buxoro amirligi va Xiva xonligini o'z vasaliga aylantirdi, natijada o'rtada noteng savdo aloqalari vujudga keldi.

## **1-Bob. Buxoro amirligining ichki savdo munosabatlari, hamda Qo'qon va Xiva xonliklari bilan tashqi savdo munosabatlari.**

### **1.1. Buxoro amirligining ichki savdo munosabatlari.**

XVIII asr o'rtasida vujudga kelgan Buxoro amirligining dastlabki davrida mamlakatdagi boshqa sohalar qatori savdo munosabatlari ham alohida e'tibor talab qilar edi. Chunki XVIII o'rtalarida Buxoroda savdo munosabatlarning zaiflashuvi yuz bergan edi. Bunga bir nechta katta sabablar bor edi:

1. XVIII asr boshlarida Ashtarxoniylar o'rtasida taxt uchun kurashning avj olishi;
2. Abulfayzxon davrida kuchli siyosiy tarqoqlikning vujudga kelishi;
3. 1730-yillarda ko'chmanchi qozoqlarning Zarafshon va Qashqadaryo vohalari bo'ylab amalga oshirgan talonchiligi;
4. Buxoroda beqaror vaziyatning hukm surishi tufayli ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligining og'ir ahvolga kelib qolishi;
5. Soliqlarning ko'pligi;
6. Ashtarxoniylar zarb etgan tanga pullarning qadrsizlanishi;
7. Mamlakatning ma'muriy tizimida parokandalik, amaldorlar orasida poraxo'rlik, xon xazinasi va xalq mulkining talon-taroj qilish ishlarining kuchayishi va hokazo.

1747-yilda Muhammad Rahimbiy amalda Buxoro hokimiyatini egalladi. Muhammad Rahimbiy hokimiyat tepasiga kelgach, mamlakatda barqarorlikni o'rnatish uchun kurashdi, soliqlarni kamaytirdi, ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligini ancha tiklashga muvoffaq bo'ldi, savdo munosabatlarini ham rivojiga ham e'tibor berdi, poytaxt Buxoro atrofida barcha viloyatlarni birlashtirib siyosiy tarqoqlikka ma'lum muddatga chek quya oldi. Ma'lumki, 1756-yilda yirik davlat arboblari va aslzodalarining qo'llab-quvvatlashlari natijasida Muhammad Rahimbiy o'ziga "xon" unvonini olib rasmiy hokimiyatni ham o'z qo'liga olgan edi va tarix sahnasiga Buxoro amirligi davlati chiqdi.

1758-yil Muhammad Rahimxon vafot etgach, mamlakatda yana tartibsizliklar paydo bo'la boshlaydi. Buxoro amirligi hukmdori Doniyolbiy otaliq (1758-1785-y.y.) davrida siyosiy tarqoqlik vujudga keldi, natijada mahalliy bekliklar bilan kurash boshlandi. Doniyolbiy otaliq faqatgina Buxoro va uning atrofidagi hududlardagina barqarorlikni saqlab qoldi. Bundan ko'rinib turibdiki mamlakatda savdo-sotiq bilan asosan Buxoro ahli shug'ullana olgan. Doniyolbiy otaliq poytaxt savdogarlariga bir qator imtiyozlar berdi, Rossiyaqa borib savdo-sotiq qilib kelishi uchun sharoit qilib berdi. Chunki amirlik iqtisodiyoti uchun ichki va tashqi savdo munosabatlarini tiklash va rivojlantirish juda muhim edi.

1785-yilda amirlik taxtiga Amir Shohmurod ibn Doniyolbiy o'tirdi va uning davrida mamlakatda barqarorlik o'rnatildi, barcha sohalar rivojlandi, ayniqsa savdo munosabatlar taraqqiy etdi. Amir Shohmurod poytaxt Buxoro shahriga ham alohida e'tibor bergan edi. Uning davrida Buxoroda ko'plab karvonsaroy bo'lib, ularda musofir va mahalliy savdogarlar istiqomat qilganlar. Karvonsaroyda ombor, do'kon, ustaxona, mehmonxonalar bo'lgan. Karvonsaroylarning amirga, ayrim shaxslarga va vaqfqa tegishlilari bo'lgan. Buxoro karvonsaroilariga har yili 12 - 15 ming tuyada mol kelgan. Savdo ishini karvonboshi — amirlikdagi barcha savdo ishlarining boshqaruvchisi boshqargan. Buxoroda ichki va shaharlararo savdo to'qqizta tim va chorsuda amalga oshirilgan.

Ilgarigi davrlarda bo'lganidek, amirlikning hunarmandchiligi sohasida to'qimachilik uning asosiy tarmog'i hisoblangan. Ushbu tarmoqning rivojlanishiga asosiy sabab, birinchidan soha uchun mahalliy xom ashyo manbalari – paxta, jun, ipak etarli darajada bo'lgan bo'lsa, ikkinchidan, ichki va tashqi bozorda, kundalik hayotda to'qimachilik mahsulotlariga talab katta edi. Amirlikda ayniqsa bo'z, chit, olacha ko'p miqdorda tayyorlangan. Qarshi, Hisor, Baljuvon, Denov, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz va ularning atroflarida ipak matolar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilgan. Boshqa shahar va qishloqlarda

ham ip yigirish, mato to‘qish, tayyor kiyim tikish, gilam to‘qish va boshqa to‘qimachilik sohalari ancha rivojlangan. Manbalar ma’lumotlariga ko‘ra, Buxoroning zarbof to‘nlari, Shahrisabzning iroqi do‘ppilari, Termizning harir matolari, Samarqand va Boysun hunarmandlarining ipak matolari amirlikdan tashqarida ham juda mashhur bo‘lgan.

Amirlik hunarmandchiligidagi muhim tarmoqlardan yana biri bu – kulolchilik edi. Xo‘jalik tarqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan kulolchilik amirlikning deyarli barcha hududlarida rivojlangan edi. Kulolchilik eng taraqqiy etgan markazlar Buxoro, Samarqand, Qarshi, SHahrisab, Urgut, Denov, G‘ijduvon kabilar bo‘lib, ularning mahsulotlariga ichki va tashqi bozorda talab katta bo‘lgan. Amirlik kulolchiligida O‘rta Osiyoning ko‘pgina kulolchilik maktablariga xos bo‘lgan manzaralar(turli gullar va o‘simliklar tasviri), turli hayvonlar, qushlar, hashoratlar yoki ular tanasining bir qismini shartli ravishda tasvirlash kulol ustalar tomonidan keng qo‘llanilgan.

Amirlik iqtisodiyotining metallga ishlov berish sohasi ham yaxshi rivojlangan. SHahrisabz, Urgut, Nurota, Bosun, SHerobod kabi tog‘li tumanlardan ma’danlar qazib olingan bo‘lib, ulardagi konlardan foydalanish ba’zi tanaffuslar bilan XX asr boshlariga qadar davom etgan edi. Bu davrda amirlikdagi metallga ishlov berish taraqqiy etgan quyidagi to‘rtta asosiy tarmog‘i-temirchilik, misgarlik, cho‘yan quyish va rixtagarlikni alohida ko‘rsatish mumkin. Temirchilik sohasida ustalar qishloq xo‘jaligida va kundalik turmushda ishlatadigan mehnat qurollari, harbiylar uchun jangovar qurollar yasaganlar. Amirlikning ko‘pgina shaharlarida Temirchi, Guzari Chilangaron kabi chilnagar-temirchilarning maxsus mahalla guzarlarining mavjudligi ushbu hunarmandchilik turining ancha taraqqiy etganligini ko‘rsatadi. Amirlikning asosan yirik shaharlarida misgarlik ham rivojlangan. Mis xos ashyosi asosan Rossiyadan keltirilgan bo‘lib undan chilim idishlari, barkash, lagan, ko‘zacha, tog‘oracha kabi ko‘plab idishlar yasalgan, hamda ular turli naqshlar bilan mohirona bezatilgan.

Buxoro amirligining metallga ishlov berish sanoatida degrezlik-cho‘yan quyishning alohida o‘rni bor edi. Bu soha ustalari asosan shaharlardagi maxsus guzarlarda yashaganlar. Ular cho‘yandan qozon, chiroq, manqaldon kabi buyumlar yasaganlar. Bronzadan buyumlar yasash – rixtagarlik ham amirlikning ko‘pgina shaharlarida taraqqiy etgan edi. Ushbu kasb sohiblari turli buyumlar va taqinchoqlar yasaganlar.

Undan tashqari amirlikda hunarmandchilikning boshqa ko‘pgina turlari ham rivojlangan. Xususan Buxoro, Qarshi va Shahrisabz shaharlaridagi zargar ustalar tomonidan tayyorlangan zargarlik buyumlari, qimmatbaho toshlar, metall va turli xil shishalardan yasalgan taqinchoqlar amirlik va undan tashqari hududlarda ham mashhur bo‘lgan. Ko‘nchilik ham yaxshi rivojlangan tarmoq hisoblangan. Charmgar ustalar tomonidan yaxshi ishlov berilgan terilardan turli xil oyoq kiyimlari, bosh kiyimlar, po‘stin va nim po‘stin, turli xil meshlar tayyorlangan.

Amirlikning deyarli barcha hududlarida yog‘och o‘ymakorligi yaxshi rivojlangan. Shaharlarda mohir duradgorlar ko‘p bo‘lgan. Amirlikning shahar va qishloqlarida tayyorlangan hunarmandchilik mahsulotlari ichki bozor ehtiyojlarini ta‘minlabgina qolmasdan ko‘p hollarda tashqi bozorga ham chiqarilgan.

Amirlikda hunarmandchilik va undagi ishlab chiqarishning tarqqiy etishi doimiy savdo-sotiq munosabatlarining yanada kengayishiga asos bo‘lgan edi. XVIII asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligining ko‘pgina shaharlarida karvonsaroylar qurilishiga katta e‘tibor qaratilib, bu holat savdo munosabatlari rivojini yanada mustahkamlashga xizmat qilgan edi.

Amirlikning yirik shaharlari – Buxoro, Samarqand, Termiz, Shahrisabz, Qarshi, Kattaqo‘rg‘on, Dehnov, Nurota va boshqalar asosiy savdo markazlari edi. Manbalarga ko‘ra, XIX asr boshlariga kelib yirik karvon yo‘llari

chorrahasida joylashgan Qarshi shahrining ahamiyati oshib ketadi. Ichki bozorlarda avvalo kundalik ehtiyoj mollari, oziq-ovqat mahsulotlari, hunarmandlar ishlab chiqargan mahsulotlar, paxta matolari, jun va ipak matolariga talab katta bo'lgan. Ichki savdoning taraqqiyotida yirik shaharlarning atroflardagi qishloqlar bilan iqtisodiy munosabatlari hamda shaharlararo savdosotiq aloqalarining rivojlanganligi muhim o'rin tutgan. Chunonchi, amirlikdagi bozorlar nafaqat shaharlar, balki ularning atrofidagi qishloqlar aholisining talablarini qondirishda ham alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Amirlikdagi barcha shaharlarda, yirik qishloqlarda ixtisoslashgan bozorlarning mavjudligi ichki savdoning davlat iqtisodiyotidagi muhim ahamiyatidan dalolat beradi.

Boshqa hukmdorlar qatori Amir Shohmurod davrida ham davlat hayotida iste'mol ehtiyojlari ishlab chiqarishdan ustun bo'lmadi. Bu esa o'z navbatida, yuqori mehnat unumdorligini ta'minlovchi yirik mashinalashgan ishlab chiqarishdan foydalanish ehtiyojini vujudga keltirmadi. Natijada, oddiy hunarmandchilik ishlab chiqarishi manufaktura ishlab chiqarishi darajasiga ko'tarilmadi. Shuning uchun ham ichki bozorda odatdagi hunarmandchilik va qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi yetakchi o'rin egallagan.

Buxoroda bozordagi narx-navo, tosh-tarozining to'g'riligi qattiq nazorat qilinar edi. Kimki xaridor haqqiga xiyonat qilsa, qattiq jazoga duchor etilardi, xususan, bundaylar yarim yalang'och holda aravada, bozor ahliga namoyish qilish uchun sazoyi qilinardi va ovozi boricha: "Men shayton yo'liga kirib, xaridorni aldadim", deb jar solishga majbur etilardi.

O'rta Osiyo, xususan, Buxoro bozorlari faqatgina xo'jalik vazifasini o'tab qolmagan. Ular ayni paytda o'ziga xos jamoat va madaniyat markazi vazifasini ham bajargan. Xususan, bozorlarda hukmdorning farmonlari o'qib eshittirilar, aybdorlar jazolanar, bayram kunlari esa turli tomoshalar ko'rsatilar edi. Savdo-

sotiq markazi Buxoroda 1848-yilda 38 ta karvonsaroy, 9 ta tim va ko'plab bozorlar mavjud bo'lgan.<sup>3</sup>

Ashtarxoniylar davrida kuchayib ketgan siyosiy kurashlar, chet elliklar hujumi natijasida talangan, vayronaga aylangan Samarqand shahri Amir Shohmurod davrida deyarli qayta tiklangan. 1780-1785 yillarda Amir Shohmurod ushbu shaharga hokim etib tayinlangan. Buxoroda hokimiyat tepasiga kelgandan so'ng ham hayotining so'ngiga qadar Samarqandni rivojlanishiga katta e'tibor bergan. Amir Shohmurod Samarqandga Yom, Zomin, Toshkent, Urgut, Marv va boshqa hududlardan aholini ko'chirib o'tkazgan, hamda 24 ta guzarni shaharda shakllantirgan, Yominiy, Toshkantiy, Zominiy, Urgutiy shular jumlasidandir.<sup>4</sup> Amir Shohmuroddan keyin ham Samarqandga bo'lgan e'tibor davom etgan, xususan, XIX asr boshlarida shahar baland devor bilan o'rab olingan. Devorning uzunligi 13,9 chaqirim, maydoni 10,4 kv kilometrni tashkil etgan. Shaharda 80 ming aholi istiqomat qilgan.

Samarqandning Registon maydoni yaqinida Amir Shohmurod tomonidan qurdirilgan oltiqirrali Chorsu inshooti Buxoro amirligi davrida yirik savdo maskanlaridan biri hisoblangan. "Chorsu" so'zi forschadan olingan bo'lib, "to'rt yo'l" ma'nosini anglatadi. Bu savdo inshootning yana bir nomi "Toqi musaddas" bo'lgan. Bu yerda kiyim-kechak, zargarlik buyumlari, mushkambar va boshqa qimmat mahsulotlar sotilgan. Samarqandda ochiq bozor shahar markazi bo'lgan Registon maydonida tashkil etilgan.

Amir Shohmurod Samarqand shahrini tiklagach, shahar iqtisodiyotini ko'tarish maqsadida u yerdagi savdo munosabatlarni yo'lga qo'ygan bo'lsada, uning vafotidan keyingina ya'ni XIX asrdan boshlab rivojlana boshlaydi. Amir Shohmurod bunyod etgan guzarlardagi hayot hunarmandchilikka asoslangani bois, shahar bozorida hunarmandchilik mahsuloti ko'p bo'lgan. Dastlab shahar atrofidagi hududlardan kelgan savdogarlar bu yerga kelib, oziq-ovqat, kiyim-

---

<sup>3</sup> Азамат Зиё "Ўзбекистон давлатчилиги тарихи" Т.; 2001-й. 301-б.

<sup>4</sup> Сувонкулов И. "Самарқанд қадамжолари" Т.; 2006-й. 32-б.

kechak va boshqa mahsulotlarni olib kelib sotishgan yoki mahsulot ayirboshlashgan. Keyinchalik tez orada buxorolik savdogarlar, yana ba'zi chet el savdogarlari Samarqandga tashrif buyurishadi, qadimdan yirik savdo markazlaridan biri ushbu shahar necha yillardan so'ng yana gavjumlashadi. XIX asr o'rtalarida samarqandlik savdogarlar ham amirlik hududidagi boshqa yirik bozorlarga, Qo'qon xonligi, Afg'oniston va Rossiya hududlariga savdo-sotiq uchun borishgan.

Buxoro amirligining barqarorligini ta'minlagan, iqtisodiyotining istiqbolini belgilagan, ichki va tashqi savdo munosabatlarida asosiy rol o'ynagan voqea Amir Shohmurodning pul islohotini o'tkazishi bo'ldi. Amir Shohmurodning islohotlaridan pul islohoti tarixda ko'p mashhur bo'ldi. Amir Shohmurod mang'itlar sulolasi vakillari orasida birinchi bo'lib yangi pul sistemasiga asos soldi, u 1785-1800-yillar davomida to'la qimmatga ega bo'lgan "ashrafi" yoki tillo deb nomlangan oltin tanga, kumush va mis pullarni zarb qildi. Bu an'ana butun Buxoro amirligi hukmronlik qilgan davrdan boshlab, Buxoroda tanga pullarni zarb qilish to'xtatilgan 1904-1905 yillargacha davom etdi. 1785-yilga qadar Buxoro davlatida ashtarxoniylar zarb etgan tarkibida aralashmasi ko'p va sof bo'lmagan kumush tangalar muomilada bo'lib kelgan. Mazkur tangalarning ko'rinishi to'la yumaloq bo'lmagan shaklda va tanganing faqat markaziy qismidagi yozuvlarga qisman o'qilishi mumkin bo'lgan.<sup>5</sup>

Amirlik aholisining barcha qatlami eski siyqa tangalardan charchab, qiymati yuqori tangalarga anchadan beri ehtiyoj sezib kelayotgan edi. Chunki ashtarxoniylar davrida zarb qilingan tangalar o'z qiymatini yo'qotib bo'lgan, bu esa o'z navbatida savdo-sotiq, hunarmandchilik va qishloq xo'jaligi kabi sohalarining rivojlanishiga juda salbiy ta'sir ko'rsatyotgan edi. Xuddi mana shu vaziyatdan Amir Shohmurod unumli foydalanib, ashtarxoniylar Abdulg'ozixon qo'llab-quvvatlashi orqali pul islohotini o'tkazadi. Amir Shohmurod "Amir Doniyol" nomi ostida ilk tangalarini sof oltin va kumushdan zarb ettiradi.

---

<sup>5</sup> Shamsutdinov R. "Vatan tarixi" 2-jild, T.; "Sharq" 2012 y. 233-235 b.

Umuman olganda Amir Shohmurod butun hukmronligi davomida faqat otasi nomidan tangalar zarb etishni buyurgan, o'z ismini tangalar hamda xutbada keltirilishini taqiqlab quygan. Abdulg'ozixonning "ruxsati" bilan mang'itlar sulolasiga tegishli dastlabki tangalarini zarb etishga erishgan Amir Shohmurod markazlashtirish siyosatini amalga oshirishdagi birinchi dadil qadamni tashladi. U zarb etgan tangalarni oddiy xalq: hunarmandlar, dehqonlar, savdogarlar, chorvadorlar, shuningdek unchalik katta bo'lmagan zodagonlar qatlami ham mone'lik qilmasdan qabul qildi va tez orada butun amirlik bo'ylab faqat ashrafi tangalar amalda muomilaga kirdi. Shunday qilib, amirlikdagi ko'pchilik mahalliy qabilalar mang'itlar sulolasi hukmronligini tan olishdi.

Manbalarda keltirilishicha, Doniyolbiy otaliq tabiatan samimiy va ko'ngli bo'sh inson bo'lsada, hukmdor sifatida obro'siz bo'lgan. Amir Shohmurod esa otasining ismidan pul zarb etishdan foydalanib, shu yo'l bilan o'z otasining siyosatdagi mavqeini oshirish orqali ya'ni g'oyaviy tomonlama mang'itlar sulolasi hukmronligini mustahkamlashga harakat qilgan. Amir Shohmurod zarb ettirgan barcha tangalarda "Amir Doniyol" deb yozilgan, lekin aslini olganda Doniyolbiy amir emas balki otaliq lavozimida bo'lgan. Amir Shohmurod otasining ismi oldiga amir so'zini quyib pul zarb ettirishi maqsadlaridan biri o'zini amirzoda ekanligini va shu davlatning qonuniy egasi ekanligini hammaning ongiga singdirish edi. O'zining nomidan nega tanga zarb etmaganini so'fiylikka sodiqligi bilan izohlash mumkin. Amir Shohmurodning tangalari mamlakat bo'ylab tez tarqalishiga yana bir sabab, amir har bir shaxsning kumush tangalarni o'zi mustaqil zarb qilishiga sharoit yaratib berishidir. Fuqarolar esa o'z navbatida foiz hisobida bu ishi uchun davlat xazinasi foydasiga haq to'lashi ham kerak edi.<sup>6</sup>

Amir Shohmurod zarb ettirgan tangalar vazni, yuza o'lchovi, probasi, zarb etish texnikasi, unda qayd etilgan yozuvlari bilan oldingi eski tangalardan keskin farq qilgan. Amir Shohmurodning dastlabki tangalari sof kumushdan bo'lgan,

---

<sup>6</sup> Эпиграфика Востока, 1967 г., 18 выпуск, Бурнашева Р., "Монеты Бухарского ханства при Мангытах (середина 18-начало 20 в.)

1787-yildan sof oltin tangalar zarb etilib, muomilaga kiritilgan, faqatgina hukmronligining so'nggi yillarida misdan tangalar zarb ettirgan. Amir Shohmurod davrida zarb etilgan bitta tanganing og'irligi  $\frac{7}{10}$  misqolni ya'ni 3,36 grammni, yuza o'lchami  $\frac{9}{10}$  dyuym ya'ni 25,4 smni tashkil etgan. Buxoro amirligida oltin tangalar "tillo" yoki "ashrafi", kumush tangalar "tanga", mis tangalar esa "fulus" yoki "pul" deb atalgan, 1 tillo 22 tangaga, 1 tanga 50 pulga teng bo'lgan.<sup>7</sup>

Amir Shohmurod o'tkazgan pul islohoti natijasida mamlakatning ichki va tashqi savdosi oldingi davrdan sezilarli darajada ancha o'sdi, bu esa hunarmandchilik va qishloq xo'jaligi rivojiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. Amir Shohmurod tangalarining ko'p miqdorda zarb etilishi oltin va kumush tanqisligiga olib keldi, lekin buxorolik savdogarlarning sa'y harakatlari bilan chetdan katta miqdorda oltin va kumush olib kelishi natijasida bu muammo o'z vaqtida deyarli hal bo'lgan.

Amir Shohmuroddan keyin uning o'g'li Amir Haydar o'zi va otasi nomidan oltin va kumush tangalar zarb ettirgan edi. Ayni Amir Shohmurod va Amir Haydar davrida tanga pullar zarb ettirishga katta urg'u berilgan edi. Keyingi davrlarda esa Buxoro hukmdorlarning tanga zarb ettirishlari sezilarli darajada pasaygan edi.

Buxoro amirligining iqtisodiyotini ko'targan va savdo munosabatlarning rivojlanishida muhim rol o'ynagan sohalardan biri bu qishloq xo'jaligi sohasi edi. Kanallar, inshoot, qal'a, ko'priklar, yo'llar ta'miri hashar yo'li bilan amalga oshirilgan. Boshda hasharchilar oziq-ovqat bilan ta'minlangan. XVIII asrdan boshlab hasharga keluvchilar oziq-ovqati, ish asboblari, ot-aravasi bilan kelishi lozim bo'lgan. Lekin Amir Shohmurod davrida hashar ishlari uchun xazinadan pul ajratilgan.

---

<sup>7</sup> Эпиграфика Востока, 1972 г., 21 выпуск, Бурнашева Р., "Монеты Бухарского ханства при Мангытах (середина 18-начало 20 в.)

O'rta Osiyoda, jumladan, Buxoro davlatida ham qishloq xo'jaligining taqdiri sun'iy sug'orishning qanchalik to'g'ri hal etilganligiga bog'liq edi. Shuning uchun ham XVIII asrda Amir Shohmurod davrida sug'orish tarmoqlarining kengaytirilishiga alohida e'tibor berildi. Zarafshon daryosida Xurmo va Sarazm nahr(ariq)lari chiqarilgan. Ularning biri to'rt chaqirim, ikkinchisi uch chaqirim uzunlikda bo'lgan. Yana Urgut tumanini sug'organ 40 chaqirim uzunlikdagi Qozonariq, 24 chaqirim uzunlikdagi Toyman arig'i, 24 chaqirim uzunlikdagi To'g'uzariq qazilgan, hamda Oqdaryo va Qoradaryodan ham nahrlar chiqarilgan.<sup>8</sup>

Sug'orish inshootlarini yaroqli holda saqlashning og'ir yuki mehnatkashlar gardanida edi. Aynan ularning matonatli mehnati, sabr-toqati, sug'orish inshootlarining muqim ishlashini ta'minlar edi. Dehqonlar suvdan foydalanishda asrlar davomida juda katta tajriba to'plagan edilar. Ular shunday sug'orish inshootlarini bunyod eta oladilarki, unga tan bermaslikning iloji yo'q edi. Xususan, suv ayirg'ich to'g'oni qurishdagi mohirlik buning isbotidir. Masalan, suv oqimi qiya va tez bo'lgan tog' daryolari hamda soylarda suv ayirg'ichlar, tinch oqadigan daryolarda shox-shabbdan qurilgan to'g'onlar, Amudaryodek chuqur va tezoqar daryolarda esa ko'p boshli suv ayirg'ichlar qurganlar. Ayrim joylarda esa yirik to'g'onlar qurilgan.

Daryo va kanallarga o'rnatilgan chig'iriq eng ko'p ishlatiladigan suv ayirg'ich edi. Shunday chig'iriqlar ham yaratilganki, ular suvni hatto 4 metr va undan ham balandga chiqarib bera olardi. Suvni chuqur ariqlardan chiqarib olish uchun tutqichli suv ayirg'ichlar ishlatilar, bunda ot, tuyay, eshak va ho'kiz kuchidan foydalanilar edi. Dehqonchilik mehnat qurollari nihoyatda sodda edi. Oddiy dehqon so'qasi ya'ni omoch asosiy dehqonchilik quroli edi. Ot, ho'kiz, sigir, tuyay, eshak dehqonning suyanchig'i hisoblangan.

Amirlik yerlarida paxta, bug'doy, jo'xori, tariq, arpa, beda yetishtirish dehqonchilikning asosini tashkil etardi. Deyarli har bir dehqon xo'jaligida o'z

---

<sup>8</sup> Азамат Зиё “Ўзбекистон давлатчилиги тарихи” Т.; 2001-й. 229-б.

ehtiyoji va sotish uchun paxta yetishtirilardi. Ipakchilik ham rivoj topgan edi. Bog'dorchilik, sabzavotchilik va polizchilik keng rivojlangan. Piyoz, sabzi, bodring, qovoq, qovun, tarvuz, olma, olxo'ri, o'rik, shaftoli, nok, yong'oq, bodom, anjir, uzum yetishtirilar edi. Buxoro amirligi o'zining qovun va uzumi bilan mashhur edi. Ayni paytda, bog'dorchilik ham yaxshi rivojlangan. Hatto ko'pgina shaharlarni bog'lar o'rab turardi. 4 qismdan iborat alohida reja asosida bunyod etilgan bog'lar ham bo'lardi. Bog' qismlarining har birini ariqlar ajratib turgan. Bunday bog'lar chorbog' deb atalgan. Buxorodagi Jo'ybor, Toshkentdagi Kaykovus bog'lari eng mashhur bog'lar edi.

Savdo munosabatlarning rivojlanishiga ta'sir etgan omillardan yana biri bu bunyodkorlik va obodonchilik ishlari bo'ldi. Doniyolbiy otaliq hukmronligi davrida vaqf mulklari og'ir ahvolga kelib qolgan edi. Amir Shohmurod taxtga kelgach, vaqf mulklarini tiklab, uning faoliyatini yo'lga quydi. Uning davrida ko'p madrasalar, masjidlar va xonaqohlar faoliyati tiklandi, xaroba bo'lib qolgan maqbaralar va mozorlar obodonlashtirildi.<sup>9</sup> Bundan tashqari davlat ahamiyatiga molik ko'pgina binolar va inshootlar ta'mirlandi.

Amir Shohmurod davrida karvonsaroylar va bozorlarning ta'mirlanishi, hamda yangi qulay karvonsaroylarning qurilishi, ularning qulay sharoit va imkoniyatlar bilan ta'minlanishi bu savdo munosabatlarni rivojlantirishdagi eng muhim ishlardan biri bo'ldi. Bozorlar davlat nazoratiga olindi, bozor masalalari bilan shug'ullanuvchi alohida muhtasib lavozimi ta'sis etildi. Muhtasib ya'ni rais — musulmonlar tarafidan shariat qonunlarining bajarilishini kuzatuvchi, bozorlardagi tosh-tarozining to'g'riligini tekshiruvchi amaldor. Ushbu lavozimni Amir Shohmurodning o'zi ta'sis etgandi.

Tashqi savdoning rivojlanishi ichki savdoni yana ham kuchayishiga olib keldi. Amir Shohmurod tashqi savdo munosabatlarini Hindiston, Afg'oniston va Rossiya bilan kuchaytirgan edi. Amir Shohmurod va Amir Haydarning chet el savdogarlarining xavfsizligi, bemalol Buxoro amirligi

---

<sup>9</sup> Азамат Зиё “Ўзбекистон давлатчилиги тарихи” Т.; 2001-й. 301-б.

bo'ylab savdo bilan shug'ullanishi uchun sharoit bilan ta'minlanishi tashqi savdoni rivojlanishiga, buning oqibatida ichki savdoni rivojlantirishda manfaatdorlikning kuchayishiga olib kelgan edi.

XIX asrning 20-yillarida Rossiyasi Buxoro amirligiga o'z ekspeditsiyasini yuboradi. 1820-1821 yillardagi A.F.Negri boshchiligidagi ekspeditsiya tarkibida tabiatshunos Ye.K.Meyendorf ham bo'lgan. U sayohati mahsuli sifatida 1826 yilda «Puteshestviye iz Orenburga v Buxaru» deb nomlangan kitobini nashr qildirgan. Asarda ko'proq Buxoroning ichki va tashqi savdo aloqalari yoritilgan. U Buxoroni savdo-sotig'i rivojlangan, Afg'oniston, Eron, Hindiston va boshqa mamlakatlar bilan doimiy qizg'in savdo aloqalarida bo'lgan, aholisi zich joylashgan shahar, deb hisoblagan.

U Buxoroda bo'lganida 14 ta karvon saroy mavjudligini aniqlagan. Ular Abdullajon, Qushbegi, Hind, Nug'oy, Xo'ja Jo'ybor, Toshkent, Qarshi, Miragul, Amir, Kullota, Fishana, Dankulla-Shir va Urganch nomlari bilan atalgan<sup>2</sup>. XVIII asrning 70 yillarida Buxoroda 4 ta g'isht karvon-saroy bo'lgan bo'lsa, XIX asrning 40 yillarida N.V.Xani'kov davriga kelib ularning soni 24 ta g'isht va 14 ta cho'ppori karvonsaroyga yetgan<sup>3</sup>. Karvonsaroylarning yetishmaganligi sababli katta timlar qurila boshlangan.

1868-yil 28-iyunda general Kaufmannning Samarqanddagi qarorgohida amir Muzaffar Buxoro amirligini Rossiya imperiyasining protektoratiga<sup>10</sup> aylantirgan shartnomani imzoladi. Shartnomaga ko'ra, amir urush boshlashda o'zini aybdor deb tan olib, "abadiy do'stlik" nishonasi sifatida podsho qo'shinlarining harbiy xarajatlarini qoplash uchun 500 ming rubl to'lash majburiyatini oldi. Shartnomaga muvofiq, podsho tomonidan bosib olingan Chinozdan Zirabuloqqacha bo'lgan barcha hudud, Xo'jand, o'ratepa, Jizzax, Samarqand, Kattaqo'rg'on shaharlari bilan birga podsho Rossiyasi hududiga

<sup>2</sup> Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. М.: Наука, 1975. С.100.

<sup>3</sup> Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства. СПб., 1843. С.88-89.

<sup>10</sup> **Протекторат**– zamonaviy siyosiy adabiyotda mus-tamlaka mamlakatlar qaramligining bir shakli, degan ma'noda ishlatiladi. Bunday qaramlikka tushgan mamlakat g'arbi ichki ishlarida birmuncha mustaqilligini saqlab qolsa ham, lekin tashqi siyosat va mudofaa masalalari uning ustidan protektorat o'rnatgan davlat ixtiyoriga o'tadi.

qo`shildi. Ular yangi – Zarafshon okrugini tashkil qildi. Qolgan hududlar ustidan amir o`z hokimiyatini saqlab qoldi, biroq Turkiston general-gubernatorining ko`rsatmalarini bajarishga majbur edi. Amir Rossiyadan keladigan savdogarlar uchun butun amirlikda erkin savdo qilish imkoniyatini berish majburiyatini, ularni himoyalash uchun ma`suliyatni o`z zimmasiga oldi. Savdogarlarga davlatning barcha hududlarida savdo agentliklarini ta`sis etishga ruxsat berdi, ayni mahalda moldan olinadigan boj ularning umumiy qiymatining 2,5 foizdan oshmasligi darkor edi. Rossiya savdogarlari amirlik yeridan boshqa har qanday davlatga erkin o`tish huquqini oldi.

Bu mag`lub etilgan davlatni tahqirga, huquqsizlikka va qashshoqlikka mahkum etgan talonchilik shartnomasi edi. Uzunligi 877 km bo`lgan Zarafshon vodiysi Rossiya imperiyasi nazorati ostiga tushib qolayotgan edi. Bu Buxoroning va butun davlatning g`alla koni bo`lgan 12 ming km hududini sug`orib turgan asosiy suv yo`li edi. Amir, shuningdek, davlatning ikki yirik shahri – Samarqand va Jizzaxdan keladigan daromaddan ham mahrum bo`lgandi. Bunday yon berish evaziga amir Muzaffar taxtni saqlab qoldi.

Aynan shu shartnoma imzolangandan so`ng amirlikning ichki savdosi kuchsizlanib, tashqi savdosi esa inqiroz yoqasiga kelib qoldi. Buxoro amirligi shu shartnoma tufayli muhim strategik hududlari bo`lgan Xo`jand, O`ratepa, Jizzax, Samarqand, Kattaqo`rg`on shaharlaridan ajraldi, tashqi savdosi ustidan Rossiya imperiyasi o`z nazoratiga olgan edi, buxorolik savdogarlarning oldingi davridagidek erkin savdo qilish imkoni bo`lmay qoldi, ishlab chiqarilgan mahalliy tovarlar narxi tushib ketdi, amirlik bozorlarini Rossiya tovarlari egalladi, soliqlar soni haddan ziyod oshib ketdi va buning oqibatida ko`p ustaxonalar inqirozga yuz tutdi.

.XIX asrda II yarmida og`ir ahvolga qaramay hunarmandchilik ustaxonalari ishlashda davom etdi. Qayta ishlovchi sanoat korxonalari asosan shaharlarda joylashgan edi. Hunarmandlar ko`plab soliqlarni to`lashga majbur, o`z ustaxona va korxonalarini rivojlantirish uchun mablag`larga ega emasdi. Faqat

amirlikning yirik shaharlarida kosiblar sexlariga o`xshash korxona tuzgan ustazodalar bo`lib, ular ham chog`roqqina ustaxonalarni zo`rg`a ta`minlar edi. Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmog`i gilam va namat tayyorlash bo`lgan. Gilamlarga chet ellarda ham talab katta bo`lib, Buxoro amirligi ularni katta miqdorda xorijga, jumladan, Rossiyaga sotar edi. o`rta Sharq, O`rta Osiyo shaharlari va Rossiya bozorlari Buxoro gilamlariga to`la edi. Ichki va tashqi bozorlarda Buxoro ip-gazlama matolari, ko`nchilik, zardo`zlik, kumush va oltin kandakorlik buyumlari, bo`yoq va sovun mahsulotlari bilan ham tanilgan edi. Buxoro ustazodalarining oltin va kumushdan yasagan buyumlari, ayniqsa, dong taratgandi.

Buxoro amirligining deyarli barcha shaharlarida iste`dodli zargarlar mehnat qilgan ustaxonalar bo`lgan. Ular yasagan mahsulotning barchasi o`ziga xos nozik naqshlar bilan bezatilgan edi. Buxoro kulolchilik buyumlariga ham bozorda talab katta bo`lgan. Kulolchilik sanoati butun amirlikda keng tarqalgan edi.

XIX asrning oxirida Buxoro amirligi Afg`oniston, Hindiston, Eron, Kavkaz va Rossiya bilan savdo aloqalariga ega bo`lgan. Buxoro, Chorjo`y, Kerki, Termiz va Kogon (Yangi Buxoro)da Rossiya firmalari o`z idora va omborxonalariga ega bo`lishgan. Rossiya va Buxoro amirligi o`rtasida tovar aylanishi o`sib bordi. Agar 1865-yilda tovar aylanishi atigi 5 million rublni tashkil etgan bo`lsa, 1913-yilga kelib, bu ko`rsatkich 66 million rublgacha ko`paydi.

Buxoro amirligi hududi ulkan foyda keltiruvchi tranzit savdo uchun katta ahamiyatga ega edi. Rossiya va Afg`oniston o`rtasidagi barcha savdo yo`llari Buxoro amirligi orqali o`tardi. Rossiya Afg`onistonga katta miqdorda movut, chinni buyumlar, baxmal, chit, gugurt va kerosin chiqarar edi.

1887-yilda amirlik hududi orqali temiryo`l o`tkazildi. Buxorodan 15 km masofada Yangi Buxoro va Kogon stansiyasi qurilishi boshlab yuborildi. Bu yerda amir saroyi va Rossiya siyosiy agentining qarorgohi ham barpo etildi.

Endilikda Buxoro amirligi temiryo`l orqali Toshkent, Orenburg va Moskva bilan bog`langandi. 1888-yilga kelib temiryo`l Samarqandga qadar qurib kelinganida Buxoro amirligi hududida temiryo`l stansiyalari yaqinida rus qishloqlari paydo bo`la boshladi. Yangi Buxoroda Rossiya davlat banki bo`limi ochildi, ikkita paxta tozalash zavodi, Yevropa namunasida ikkita mehmonxona barpo etildi. Eski Buxoroda ham Moskva xalqaro banki bo`limi ochildi. Eski Buxorodagi qushbegi uyi va Rossiya siyosiy agentligi qarorgohi ilk paydo bo`lgan telefon aloqasi bilan bog`langan edi.

Biroq 1895-yil Buxoro amirligi bilan Rossiya bojxonasi yagona tizimiga birlashdi. Rossiya tovarlari uchun Buxoro hududi ichki bozorga aylantirildi va amirning Rossiyaga qaramligini oshirdi. Bu holat 1917-yilga qadar ya'ni Rossiya monarxiya tizimi qulaguncha davom etgan edi. 1920-yilga kelib Buxoro amirligi ham quladi.

## **1.2. Buxoro amirligining Xiva va Qo'qon xonliklari bilan savdo munosabatlar.**

Buxoro amirligi siyosiy jihatdan qo'shnilari Xiva hamda Qo'qon xonliklari bilan ko'p hollarda kelishmagan bo'lsada, bu vaziyat ushbu mamlakatlar o'rtasidagi savdo munosabatlarining to'xtab qolishiga sabab bo'la olmagan. Buxoro amirligi Qo'qon xonligi bilan yaqin savdo aloqalari o'rnatgan. Qo'qonga Buxorodan quyidagi karvon yo'llari kelgan:

1. Buxoro - Samarqand – Jizzax – Zomin – O'ratepa – Xo'jand – Mahram– Beshariq -Qo'qon.

2. Buxoro – Samarqand - Yangiqo'rg'on – Jizzax – Ravot – Jom - O'ratepa - Xo'jand- Mahram – Beshariq - Qo'qon.

Buxorodan Qo'qonga oziq-ovqat mahsulotlari ham keltirilgan. P.I. Demezoning yozishicha, Buxoroda yetishtirilayotgan guruch aholi ehtiyojini qondirmayotgani uchun, uni Qo'qondan keltirishga to'g'ri kelgan<sup>11</sup>. Buxorodan Qo'qonga ipak matolar, qorako'l terisi, hind baqqollik mollari, mal-mal, kobul kamarlari va sallalari keltirilgan. Qo'qon aholisi asosan tilla yoki kumush bilan to'qilgan kimxob ipak matosiga talabgor bo'lgan. Uning eni bir arshin bo'lib, 10 tillodan 45 tillogacha sotilgan.

Savdo aloqalarining doimiy, bir me'yorda davom etishi va rivojlanishi transport va karvon yo'llarining ahvoliga bog'liq bo'lgan. Bu o'rinda Qo'qon bilan Buxoro o'rtasidagi savdo aloqalari alohida mavqyega ega bo'lgan. Ular o'rtasidagi karvon yo'li tekis bo'lib, tovarlarni tashishda aravalardan foydalanilgan. N.V.Xanikovning bergan ma'lumotlariga ko'ra, ikkita asosiy Qo'qon karvonining birinchisi Buxoroga yozning boshida va ikkinchisi kuzning oxirida kelgan, kichik karvonlar esa yil davomida qatnab turgan. Qo'qonliklar Buxoroga mahalliy hunarmandchilik buyumlaridan tashqari, xitoy tovarlari -

---

<sup>11</sup> Записки о Бухарском ханстве. (Отчеты П.И.Демезона и И.В.Виткевича). М.1983. с 76.

choy, kumush yombi, chinni buyumlar va marjon hamda boshka rus tovarlarini olib kelgan<sup>12</sup>.

Qo'qondan Buxoroga eksport qilinadigan asosiy tovarlar ipak va ipak gazlamalar bo'lib, har yili 8 ming pudgacha keltirilgan. Eng sifatli ipak «chilla» deb atalib, u Qo'qonda ishlab chiqarilgan.

Qo'qon bilan Buxoro o'rtasida yaxshi savdo aloqalari o'rnatilgan. Qo'qon tovarlari na faqat Buxoro bozorlarida, hattoki Buxorodan Kobulga olib borib sotilgan.

Qo'qon ipagi sifati jihatidan Buxoro ipagidan ustun turgan. Shuning uchun uning narxi bir pudi 16 tillo, Xo'jand ipagi esa 15 tillo turgan<sup>13</sup>. Buxoro bozorlarida qo'qonlik savdogarlar tomonidan choy, chinni idishlar, qisman xitoy va qo'qon ipak gazlamalari va ko'plab rus temir, cho'yan va po'lat buyumlari sotilgan. Toshkentning Sibir chegaralariga yaqinligi, toshkentlik savdogarlarga qisqa muddatda tovarlarni Buxoro bozorlariga yetkazib berishga imkoniyat bergan. Bu temir, cho'yan va po'lat buyumlarning kattagina qismi Xisor, Badaxshon, Xulm, Maymand va boshqa joylarga toshkentlik va xivalik savdogarlar tomonidan olib borib sotilgan<sup>14</sup>.

Qo'qon Buxoro orqali Hindiston bilan ham savdo qilgan. Jumladan, Peshavordan Buxoro orqali Qo'qonga ingliz-hind tovarlari keltirilgan. Peshavordan Kobul, Qarshi, Samarqand va Qo'qon yo'li orqali O'rta Osiyoga har yili 10-15 ming tuyada tovarlar keltirilgan. Keltirilgan tovarlar asosan oq mal-mal, gul tikilgan ko'ylaklik matolar, shakar, indigo, qalin surp va chitlardan iborat edi. Peshavordan O'rta Osiyoga keltirilgan 10-15 ming tuya tovarlardan 1000 tuyasi bombey choylari bo'lgan.

O'z navbatida Buxoro ham Qo'qon xonligi hududidan o'tib Sharqiy Turkiston va Xitoy bilan savdo aloqada bo'lgan. Sharqiy Turkistonning Buxoro,

---

<sup>12</sup> Ханьков Н. Описание Бухарского ханства. СПб., 1843. с. 175.

<sup>13</sup> Сведения о произведениях и торговле Бухарии. Выр. из журнала «Мануфактура и торговли». 1840. Хмыр. Кол. Средняя Азия. Т. 1. с. 414.

<sup>24</sup> Юнусходжаева М.Ю. Роль Ташкента в торговле России и Восточного Туркестана во второй половине XVIII в. // Позднефеодальный город Средний Азии. Т. «Фан».1990. с.123

Xiva, Hindiston, Afg'oniston va ayniqsa, Rossiya bilan tashqi savdosi Qo'qon orqali bo'lar edi. Qo'qon-Qoshg'ar savdo aloqalari yo'l qiyinchiligiga qaramay (yo'l tog'dan o'tardi) yaxshi bo'lib, karvonlar tez-tez borib turardi, chunki osoyishta edi. Bu esa, karvonlarning har hafta safarga chiqishida asosiy omil bo'lib hisoblangan.

Qo'qon bilan Qoshg'ar oralig'idagi masofa 23 kunlik yo'l bo'lgan. Karvonlar 1000-1500 ot yuk bilan odatda iyun oyining boshlarida yo'lga chiqqan. Bu karvonlarga chodir, kiyimlar va oziq-ovqatlar ortilgan. Karvonda kobullik, eronlik, buxorolik, toshkentlik savdogarlar ham bo'lishgan<sup>15</sup>.

Qo'qondan Hindistonga va Afg'onistonga «chilla» deb ataluvchi ipak gazlamasi olib ketilgan. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, xuddi Buxoroda bo'lganidek Qo'qonda ham hindlar va afg'onlar yashagan bo'lib, ular Qo'qon-Buxoro aloqalarida muhim rol o'ynagan. Ma'lumotlarga ko'ra, ular Buxoroda 70 ga yaqin bo'lishgan.

Qo'qon Buxoro orqali Hindiston bilan ham savdo qilgan. Jumladan, Peshavordan Buxoro orqali Qo'qonga ingliz-hind tovarlari keltirilgan. Peshavordan Kobul, Qarshi, Samarqand va Qo'qon yo'li orqali O'rta Osiyoga har yili 10-15 ming tuyada tovarlar keltirilgan. Keltirilgan tovarlar asosan oq mal-mal, gul tikilgan ko'ylaklik matolar, shakar, indigo, qalin surp va chitlardan iborat edi. Peshavordan O'rta Osiyoga keltirilgan 10-15 ming tuyada tovarlardan 1000 tuyasi bombey choylari bo'lgan.

Hindistonda Qo'qon ipagiga talab katta bo'lgan. Har yili Qo'qondan, Buxoro va Hindistonga 1000 tuyada ipak jo'natilgan.

Bundan ko'rinib turibdiki Buxoro amirligi bilan Qo'qon xonligi o'rtasidagi savdo munosabatlar juda faol bo'lgan. Lekin bunday fikrni Buxoro amirligi bilan Xiva xonligi o'rtasida bo'lgan savdo munosabatlari haqida bildirish mushkul. Chunki Xiva xonligida savdoga bo'lgan e'tibor boshqa O'rta Osiyo davlatlaridagiga qaraganda kuchli bo'lmagan. Buxoro bozorlarida Xiva

---

<sup>15</sup> П.Небольсин. Очерки торговли России со странами Средней Азии, Хивой, Бухарой и Коканом. СПб., 1856. с. 12.

savdogarlari ko'p bo'lmagan. Xiva savdogarlari Orengburgga Buxoro hududi orqali ham o'tishgan.

O'rta Osiyodagi agrar masalalar bilan shug'ullangan Ye. Zelkina o'rta asrlar boshlarida Yevropa bilan Hindiston o'rtasidagi savdo aloqalarida O'rta Osiyoning alohida o'rni bo'lganligi, bu davrda savdo-sotiq juda ham gullab yashnaganligi, ammo, XVI-XVII asrlarda bu savdo bir oz sekinlashgan bo'lsa, XVIII asrda yana jonlanish sezilganligini ta'kidlaydi. Muallif o'rta asr bozorlaridagi qul savdosiga ham e'tiborini qaratgan. Qulchilik bozori ko'proq Xivada bo'lganligi ehtimol. Zelkina ma'limotiga ko'ra, Xivaning katta bozorlarida 200 tagacha qullar bo'lgan, O'rta Osiyoda qullar mehnati samarasiz bo'lib, ular asosan uy ishlarida va dalalarda ishlatilgan. U Xiva va Buxoroning Eron bilan chit, movut va qullar orqali qizg'in savdo qilganligini ta'kidlaydi.

XVIII-XIX asrlarda Xiva xonligi muayyan dinamik taraqqiyot bosqichiga erishgan edi. Qo'shni Buxoro amirligi, Qozoq juzlari va bebosh turkman urug'larining murakkab o'rovi sharoitida bo'lishiga qaramay, xonlikda ba'zi stabil holatlar kuzatiladi.

Xiva xonligi hunarmandchilik va savdo munosabatlari qo'ng'irotlar davriga kelib ancha rivojlandi. me'morchilikning yuksalishi kulolchilikda ham o'z ifodasini topdi. Kulollar faqat alohida-alohida buyumlar tayyorlabgina qolmasdan, bir necha yuzlab lagan, tovoq va kosalardan iborat butun bir to'y marosimini o'tkazishga yetadigan to'y majmualarini ham tayyorlaganlar. Alohida tantanalar uchun maxsus to'y va podshoyi tovoqlar ham tayyorlangan. XIX asrning 30–40-yillariga oid manbalarda Xivada zargarlik hunari mahorati yetakchi hunarlar qatorida turgan. Xivaning bosh taqinchog'i – jig'a O'rta Osiyoning boshqa mintaqalariga ham keng tarqalgan. Sirg'alar, uzuklar, injular, bilaguzuklar esa qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan. Bilaguzuklar har birining og'irligi 300 grammgacha bo'gan.

Xiva shahrida hunarmandchilikning yog'och o'ymakorligi, badiiy to'qimachilik, gilamchilik, kashtachilik, naqqoshlik kabi o'nlab turlari ham

mavjud bo'lgan. XIX asrda Xiva yog'och o'ymakorligi maktabi xonlikda oldingi o'rinda turadi. U o'z badiiy yuksakligi bilan ajralib turardi. Xiva shahri ayni paytda XX asr boshlarigacha xonlikda yagona shoyi to'qish markazi bo'lib qoldi.

XIX asrda Xivada matoga gul bosish san'ati o'zining kulrang uyg'unligi va mayda gullari bilan o'rta Osiyoning boshqa gul bosish markazlaridan farq qilib turadi.

Xiva xonligi savdogarlari Buxoro amirligi hududi orqali Afg'onistonga, undan o'tib Hindistonga borishgan. Xiva xonligi savdogarlari yana Buxoro hududi orqali Qo'qon xonligiga, undan o'tib Sharqiy Turkiston va Xitoyga borishgan. Shuning uchun ham Xiva tashqi savdo munosabatlarida Buxoro amirligi muhim ahamiyat kasb etgan.

Xivalik savdogarlar Buxoro amirligi bozorlarida asosan gilam, shoyi matolar va zargarlik buyumlarini keltirib sotishgan. Ular u yerdan har xil sifatli gazlamalar, paxtadan ishlangan matolar, metallardan ishlangan buyumlar, choy va boshqa mahsulotlarni Xiva xonligi bozorlari va Rossiyaga sotish maqsadida sotib olishgan.

Buxorolik savdogarlari Qo'qon, Afg'oniston, Hindiston, Xitoydan mollarini o'z hududida yoki Xiva xonligi bozorlarida xivalik savdogarlarga sotishgan. Bu ma'lumotni juda ko'p manbalar tasdiqlaydi.

Buxoro aholisini chorva mollari va chorvachilik mahsulotlari, tuyalar hamda hunarmandchilik buyumlari bilan ta'minlovchi Xiva turkmanlari bilan keng savdo olib borilgan. Ular xom teri, shuningdek, qo'y terisini turli ranglarga bo'yab tikkan kamzullari bilan ham mashhur edilar. Bundan tashqari turkmanlar Buxoro bozorlariga zotdor otlar olib kelib sotardilar. Bu mahsulotlar Buxoro bozorlarining eng xaridorgir mahsulotlari edi. Buxoroning qozoqlar bilan savdo aloqalarida qoraqalpoqlar vositachilik qilar edilar.

## **2-Bob.Buxoro amirligining Sharq mamlakatlari va Rossiya bilan tashqi savdo munosabatlari.**

### **2.1.Buxoro amirligining Afg'oniston va Hindiston bilan tashqi savdo munosabatlari.**

Buxoro xonligi tashkil topgandan buyon Eron, Xitoy, Hindiston Sharq mamlakatlari kabi bilan diplomatik va savdo aloqalari qilib kelingan. Amir Shohmurod davrida ham Sharq mamlakatlari bilan o'ziga xos diplomatik va savdo aloqalari o'rnatilgan bo'lib, asosan Hindiston va Afg'oniston bilan savdo aloqalar jadal rivojlandi, buning oqibatida Buxoro tashqi savdodan katta daromad oldi.<sup>16</sup> Xitoy bilan esa savdo aloqa qilishga u qadar kuchli ehtiyoj bo'lmagan. Buxoro va Eron urush holatida bo'lgani bois ikkala davlat o'rtasidagi savdo aloqalari xatarli bo'lib qoldi, bundan tashqari Amir Shohmurodning Eronga nisbatdan yuritgan tashqi siyosati, shia masxabiga salbiy munosabati ham bu ikki davlat o'rtasidagi savdoga imkon bermas edi. Quyida Mang'itlar davrida Buxoroning Sharq mamlakatlari bilan tashqi savdo aloqalari haqida kengroq to'xtalib o'tamiz.

Buxoro va Afg'oniston davlatlari o'rtasidagi diplomatik va savdo munosabatlar albatta bevosita Hindiston bilan ko'proq bog'liq. Zero, Afg'oniston Buxoro va Hindiston o'rtasida joylashgan edi. XVIII asr II asr yarmida bu ikki davlat o'rtasida ziddiyat mavjud bo'lib, Durroniylarning Afg'on podsholigiga asos solinishidan boshlangan edi. Muhammad Rahimbiy Buxoroda markazlashtirish siyosati bilan band ekanligidan foydalangan afg'onlar Buxoro davlati sarhadlariga ko'plab talonchilik yurishlarini uyushtirishdi. Amir Shohmurod esa Afg'on podsholigiga qarshi 1787-1788 yillarda muvaffaqiyatli urushlar olib bordi. Bu paytda Afg'onistonda Temurshoh Durroniyy ( 1772-1793-y.y.) hukmronlik qilgan. Ular o'rtasidagi hudud uchun kurash 1752-yilda Ahmadshoh Durroniyy tomonidan bosib olingan Buxoro

---

<sup>16</sup> Михалева Г.А, “Узбекистан в XVIII первой половине XIX века ремесло, торговля и пошлины” Т.; 1991-г. С-61.

davlatiga tegishli, Amudaryoning o'ng sohilidagi Andxoy, Shiberg'on, Saripul va Axcha viloyatlariga egalik qilish uchun boshlandi.<sup>17</sup> Bu kurashda Amir Shohmurod g'alaba qozonib, afg'onlarni mag'lub etadi. Temurshoh Amir Shohmurod bilan 1788-yilda sulh tuzishga majbur bo'ladi. Bu sulhga ko'ra, Afg'oniston Andxoy, Shiberg'on, Saripul va Axcha viloyatlarini Buxoroga qaytarib berib, Amudaryo har ikki davlat o'rtasidagi chegara bo'lib qolishiga kelishilgan edi. Lekin 1793-yilda Temurshoh Durraniy vafotidan foydalangan Amir Shohmurod Balx shahrini egallaydi.<sup>18</sup> Temurshoh vorisi Zamonshoh Amir Shohmurodga qarshi jiddiy harakat ham qilolmadi. Balx shahri o'sha davrda Hindiston bilan savdo qilishga qulay bo'lgan muhim savdo bekati bo'lgan. Balxni egallashi bilan Amir Shohmurod Afg'oniston va Hindiston bilan tashqi savdoning jadallashuviga erishdi. Amir Shohmurodning pul islohoti va tashqi savdoga bergan katta e'tibori tufayli Buxoro va Afg'oniston o'rtasidagi savdo munosabatlari sezilarli darajada rivojlandi.

Buxorolik savdogarlarning Afg'onistonga qatnovi Qobul, Qandahor, o'sha davrda Afg'onistonga qarashli Kashmir va Panjob, Hindiston bilan chegara hududlarini qamrab olgan. Buxorodan Afg'onistonga asosan paxta va ipak mahsulotlari eksport qilingan. Buxoroliklar Rossiya bilan keng ko'lamdagi savdo-sotiqni amalga oshirib, rus tovarlarini Afg'onistonga olib borib sotish bilan ham shug'ullanishgan. Rus tovarlarini esa bejirim sandiqlar, fabrikalarda ishlab chiqarilgan metall buyumlar va boshqa narsalar tashkil etgan. Afg'onistondan Buxoroga XVIII-asr oxirlarida har yilda 3-3,5 ming tuya yuk kelgan. Bu yukni asosan oltin, hamda kumush metallari, hind-ingliz mollari, muynali mahsulotlar, Kashmir matolari va boshqa turdagi matolar tashkil etgan. Bundan tashqari, Buxoro savdogarlari 1790-1800-yillar davomida Afg'onistondan Rossiyaga hind matolari, hind yong'oqlari, hind-ingliz mollari,

---

<sup>17</sup> Shamsutdinov R. "Vatan tarixi" 2-jild, T.; "Sharq" 2012 y. 235-b.

<sup>18</sup> [www.ru.wikipedia.org/buxarskiy-emirat](http://www.ru.wikipedia.org/buxarskiy-emirat)

jami 50 ming rubllik yukni olib borib sotishgan.<sup>19</sup> Buxoroning Afg'oniston va Hindiston bilan savdo aloqalarida afg'on savdogarlarining roli katta bo'lgan.

E.K.Meyendorfnin "Путешествие из Оренбурга в Бухару" asarda Buxoroning Afg'oniston bilan savdo aloqalari ikkita savdo yo'li orqali olib borilishi xususida fikr bildirilgan. Birinchisi, Balx orqali Kobulga, ikkinchisi esa Buxorodan Hirotga boradigan yo'l bo'lgan. Afg'oniston Buxoroga eng yaqin mamlakat bo'lganligi sababli uzoq yillardan buyon bu ikki davlat o'rtasidagi savdo aloqalari doimiy davom etib turgan. Meyendorf ma'lumotlariga ko'ra, bir savdogar Buxorodan Kobulga 30 marta borgan ekan. Uning yozishicha, afg'onlar Buxoroga o'zlarining tovarlarini va tranzit yo'li bilan kashmir sholi matosini olib kelgan.<sup>20</sup>

Buxoroning qishloq xo'jaligi xususida yozib, Buxoro paxtasining kattagina qismi eksport qilinganligi bois paxta yetishtirish masalasiga alohida ahamiyat berilishini ta'kidlagan. U Kobulda g'o'za o'simligi yaxshi o'smasligi sababli paxta Kobulga Buxorodan keltirilishini, lekin Rossiyaga undan ham ko'p miqdorda chiqarilishini eslatib o'tgan.

1838 yil ma'lumotlariga ko'ra, Buxorodan Kobulga juda ko'p tovarlar jo'natilgan. Ular orasida Qo'qonning kumush tangalari va kumush yombilari, xitoy shoyi ro'mollari va chinnisi, Qo'qon kanop losi ham bo'lgan<sup>21</sup>. Buxoro Qo'qondan xom ipak va kanop losi olgan, bu tovarlar so'ng Afg'onistonga sotilgan, Qo'qon va Xo'janddan guruch ham keltirilgan. Bu ma'lumotlar birinchidan, Qo'qonning Buxoro amirligi bilan savdo munosabatlari haqida, qolaversa Buxoro orqali xonlikning Afg'oniston bilan savdosi aloqalariga krishganligi to'g'risida daliliy ashyolar hisoblanadi<sup>22</sup>. Buxoroning tashki savdo aloqalarida, uning ko'shnilari Marv va Hirot aholisi alohida rol o'ynagan.

---

<sup>19</sup> Михалева Г.А, "Узбекистан в XVIII первой половине XIX века ремесло, торговля и пошлины" Т., 1991-г. С-64.

<sup>20</sup> Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. М.: Наука, 1975. С.47.

<sup>21</sup> Кузнецов В.С. Экономическая политика цинского правительства в Синьцзяне. М.1973. С.94.

<sup>22</sup> Сведения о произведениях и торговли Бухарии. Выр. из журн. "Мануфактура и торговли". 1840. Хмыр. Кол. Средняя Азия. Т.1. С.426.

Buxorolik savdogarlar Marvga har xil rus tovarlarini olib kelgan. Rus tovarlari Buxoro orqali Hirot bozorlariga ham olib borilgan. G.Amirovning Buxoroning savdo ahamiyati to'g'risidagi fikrlarini Mulla Alim Mahmudning "Tarixi Turkiston" asari ham tasdiqlaydi. Muallif bu asarda Buxoroni o'z davrining muhim savdo markazi bo'lganligini ta'kidlagan.

G.Amirov Kobul shahrining Buxoro-Afg'oniston savdosidagi muhim markaz ekanligi haqida yozib, bozorlarida 4 ta karvon-saroy, ularda hindistonlik, kashmirlik, eronlik va buxorolik savdogarlar to'xtashgan, deb ma'lumot beradi.

Sayohatchi Hindistonda bo'lgan vaqtida uning savdosi bilan yaqindan tanishgan. Uning yozishicha, Xaydarobodda ipak va paxtadan juda chiroyli matolar to'qilib, ular Kobul, Qandaxar, Hirot va Buxorogacha olib borib sotilgan. Sayyoh Jaynagarni muhim savdo shahri deb baholaydi. U shahar bozorida eron, afg'on, buxoro va qisman rus tovarlari sotilayotganligini ko'rgan. Ma'lumki, rus savdogarlari O'rta Osiyo va boshqa Sharq bozorlariga to'g'ridan-to'g'ri kirish imkoniyatiga ega bo'lmagan. Ammo o'rta osiyolik, afg'on, eron, hind savdogarlarining vositachiligi orqali rus tovarlari O'rta Osiyo va Sharq mamlakatlariga olib borilgan.

Amirov Kashmir savdosi haqida «Kashmirda 12 ming dastgoh bo'lib, unda 100000 shol ro'moli to'qiladi, undan 60000 Hindistonga, 12000 Eron, Turkiya va boshqa joylarga, 3000 Buxoro va Rossiyaga jo'natishga mo'ljallangan, 20000 ni aholi sotib olgan, deb yozadi.

Meyendorf Buxoro bozorlari rastasida hind parchasi va ip gazlama matolari borligini eslatadi. Buxoroga Hindistondan guruch, qimmatbaho toshlar va yupqa shamshir keltirilgan. U Buxoroning afg'on savdogarlari orqali Kashmir bilan olib borgan savdosi to'g'risida yozadi. Ular Kashmirdan shol va zar iplardan to'qilgan movut olib kelganlari haqida yozadi. Meyendorf hindlar o'z tovarlari bilan Kabul, Shikarpur, Multon va umuman Hindistondan keladilar, deb yozadi. Ular kashmir sholi, zar ip bilan to'qilgan ipak matolar, yupqa ip matolar,

salla uchun ishlatiladigan oq mato va astarlik uchun ishlatiladigan gulli mato, mayda dur va qimmatbaho toshlar, nil bo'yog'i keltirgan<sup>4</sup>.

Shunday qilib, Meyendorf keltirgan dalillar XIX asrning 20-yillarida ham Buxoro xonligining Afg'oniston, Hindiston, Kashmir va Eron bilan jadal savdo aloqalarida bo'lib turganlini tasdiqlaydi. Jumladan, keyingi to'rt-besh yilda Buxoroda hindlar soni juda tez ko'payib ketib 300 taga yetga, ularning bir qismi muqim o'rnashib olgan bo'lsa, qolgan qismi esa Kobulga borib kelib turadi. Buxoroda taxminan 4000 afg'onlar bo'lib, ularning bir qismi savdo bilan shug'ullangan. Eronliklar esa 40000 kishi bo'lib, ularning aksariyat ko'pchiligi qullar bo'lgan.

Kashmir va Kobuldan Buxoroga asosan, kashmir sholi, hindlarning gulli ip matolari, zar ip bilan to'qilgan gulli oliy navli ipak kiyimlar va nil bo'yog'i keltirilgan. Eversman ma'lumotlariga ko'ra, Kashmirdan har yili 40000 sholi olib chiqilgan, ulardan Buxoroga faqat 3000 tasi keltirilgan.

Sharq mamlakatlar orasida aynan Hindiston Buxoro uchun savdo munosabatda eng qulay o'lka hisoblanib kelgan. Buxoro savdogarlari asosan Hindistondagi Peshovar hududida savdo qilishgan. Buxorodan Hindistonga ipak gazlamalar, paxta mahsulotlari, shuningdek hunarmandchilik mahsulotlari olib borilgan. Hindistondan Buxoroga hind baqqollik mollari, mal-mal, hind-ingliz mollari, xilma hil matolar, kiyim-kechaklar, choy keltirilgan. Shuni ham ta'kidlash lozimki, XVIII asr oxiridan XIX asr I yarmiga qadar buxorolik savdogarlar hind savdogarlaridan katta miqdorda oltin, hamda kumush metallarini xarid qilib Buxoroga olib kelishgan. Fikrimcha, o'sha davrda Buxoro amirligida o'tkazilgan pul islohoti natijasida yangi pullarni zarb etishda oltin va kumushga ehtiyoj kuchaygan va bu muammo savdogarlar tomonidan chetdan oltin, hamda kumush olib kelish bilan hal qilingan.

Eversman Meyendorf kabi Buxoroni Osiyo tranzit savdosining muhim markazi sifatidagi ahamiyatini ta'kidlab o'tadi. U ham Meyendorf kabi Buxoro shahrida mavjud bo'lgan karvon-saroylar xususida fikr bildirgan. Masalan: hind

---

<sup>4</sup> Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. М.: Наука, 1975. С.42.

karvon-saroyida hindlar, xitoy karvon-saroyida qo'qonlik va qashg'arlik savdogarlar, tatar karvon-saroyida tatarlar yashaganligi haqida ma'lumot bergan. Bu asarlar XIX asr boshlaridagi ilmiy tadqiqot ishlariga asos bo'ldi. Ye.K.Meyendorfning asari fransuz tilida nashr qilinganidan keyin bu asar parchalarining rus tilidagi tarjimalari paydo bo'la boshladi. Bu nashrlarning muallifi G.I.Spasskiy (1783-1864) edi. Spasskiy 1825-1827 yillarda Peterburgda « Азиатский вестник » jurnalini nashrdan chiqaradi. Jurnalda uning sharqshunoslikka bag'ishlangan bir necha maqolalari ham chop qilinadi. Ular Meyendorfning « Новейшее описание Великой Бухарии » asarining bo'laklari edi<sup>1</sup>. Spasskiy e'tiborini O'rta Osiyoning Hindiston va Eron bilan savdo aloqalariga qaratgan. U jumladan, bunday yozadi, «Poytaxt Buxoroda savdo qilish uchun Shikarpur va Sinddan kelgan 200 nafar hindlar, hamda Multon va Panjobdan kelgan 50 sikxlar yashaydilar».

Buxoroning qo'shni davlatlari bilan aloqalari tarixi XVIII asrning oxirlari va XIX asrning boshlarida 30 yildan ortiq Sharq mamlakatlari bo'ylab sayohat qilgan Gabaydulla Amirov tomonidan ham yozib qoldirilgan. Uning ko'rsatmalari 1825 yil « Азиатский вестник » jurnalida nashr qilingan. G.Amirovning ma'lumotlariga ko'ra, Hindistonning Jaynagar va Xaydarobod shaharlariga buxoro va kabul mollari qatori rus tovarlari ham keltirilgan.<sup>2</sup>

Ye.K.Meyendorf Buxoroda 300 nafar hind savdogarlari savdo qilganligini aniqlagan bo'lsa, Spasskiy esa ular 250 ta edi deb yozadi. Meyendorf asari asosida Spasskiy « О нынешнем состоянии некоторых областей и городов в Средней Азии » asarini yozgan.

XIX asrda O'rta Osiyo xonliklaridagi savdoni qo'lga kiritish maqsadida inglizlar tovarlarini Buxoro va Qo'qon xonliklariga tarqatish yo'llaridan biri sifatida Shimoliy Hindistondagi Peshavor yaqinida yashaydigin hindistonlik musulmonlar yordamidan foydalangan. Ular parachlar deb atalgan<sup>23</sup>. Ingliz

---

<sup>1</sup> Новейшее описание Великой Бухарии //Азиатский вестник. СПб., 1825. № 1-6.

<sup>2</sup> Амиров Г. Странствование Габайдуллы Амирова по Азии //Азиатский вестник. СПб., 1825. № 1-6. С.110.

<sup>23</sup> Тетеревников А.Н. Очерк внутренней торговли Киргизской степи. СПб., 1867. с. 53.

savdogarlari o'z tovarlarini uch yil muddat bilan parachlarga qarzga bergan, o'z navbatida parachlar mollarini Buxoro va Qo'qonda nasiyaga sotishgan. Parachlarning ba'zilar Buxoro va Qo'qonda joylashib olganlar va shu yo'l bilan ingliz tovarlarini kengroq yoyishga harakat qilganlar. Ingliz tovarlari O'rta Osiyoga ikki yo'l, ya'ni Kobul va Mashhad orqali kirib kelgan. Toshkentga esa u yer bilan doimiy muomalada bo'lib turgan hindlar olib kelganlar. Hindlar ingliz tovarlari bilan birga mahalliy hind tovarlarini ham keltirishgan. Muallifning aytishicha, ularning asosiy ishi sudxo'rlik bo'lgan. A.N.Teterevnikov, keyingi vaqtda Toshkentga ingliz tovarlari kam keltirilayotganligi, ular faqat ilgari olib kelingan tovarlardan qolganlarinigina sotilayotganligini ko'rganligini yozadi.

Demak, hindlar nafaqat Buxoro yoki Samarqandda, balki Toshkentda ham sudxo'rlik bilan shug'ullangan bo'lishi mumkin. Muallif 1865 yili Toshkentning Rossiya tomonidan ishg'ol qilinganidan so'ng ingliz tovarlarini keltirilganligini ko'rmagan bo'lishi mumkin. Teterevnikov Angliyadan ingliz tovarlarining keltirilish yo'llari haqida ma'lumot berib, bir tomondan, tovarlarning suv yo'llari orqali juda qulay olib kelinishini ta'kidlasa, va aksincha, Peshavordan Buxoro va Qo'qonga juda qiyinchilik bilan kirib kelishini ma'lum qiladi. Muallif mayda hokimlar tomonidan xududidan o'tganligi uchun olinadigan soliqlar oqibatida savdogarlar ko'p mablag'larini yo'qotishlarini haqli ravishda e'tirof qilgan. Peshavordan Kobulgacha bitta tuya tovarni olib kelishi  $2\frac{1}{2}$  tillo (8r.20 k.) ga, Kobuldan Buxorogacha 16 tillo (60r.80 k.) ga tushgan<sup>24</sup>. Nazarimizda muallif yo tillo, yoki so'm hisobida adashgan ko'rinadi. Agarda  $2\frac{1}{2}$  tillo (8r.20 k.) bo'lsa, 1 tillo 3r.28k.ga to'g'ri keladi, unday holda 16 tillo 52r.48k. bo'lishi kerak, vaholanki asarda ko'rganimizdek 60r.80k. tushgan deb belgilangan. A.Teterevnikov savdo karvonining yo'nalishini quyidagicha belgilagan: Peshavor-Jalolobod-Kobul-

---

<sup>24</sup> Ўша асап. С. 53.

Sarichashma-Xulm-Bamian-Balx-Kerki. Kerkida savdo karvonlari ikkiga bo'linadi; ya'ni Qo'qon va Toshkentga boradigan karvonlar Samarqandga, qolganlari esa Buxoroga yo'l oladi. Zakot ikki barobar oshirilgani uchun bu yo'l noqulaylik tug'diradi. Shu yo'l bilan O'rta Osiyoga har yili 10 - 15 ming tuyaga yaqin tovarlar olib kelinadi. Bu tovarlar ko'proq: salla uchun ishlatiladigan oq doka, gulli ko'ylaklik mato, shakar, indigo – nil bo'yog'i, kolenkor (oqartirilgan dag'al surp) va chitlar bo'lgan. Teterevnikov savdogarlarning ma'lumotiga tayanib, Peshavordan keltirilgan tovarlarning yarmi Xo'jand orqali Qo'qon xonligiga qarashli shaharlarga, 2000 tuyadan oshmagan tovarlar esa Toshkentga keltiriladi, deb yozadi. Demak, agar O'rta Osiyoga jo'natilgan 10-15 ming tuya molning yarmi 5-7 ming tuya bo'lsa, shundan 2 mingi Toshkentga jo'natilsa, u holda Qo'qon xonligi shaharlariga 3-5 ming tuya mol keltirilgan bo'ladi.

Keltirilgan 10-15 ming tuya tovarning 1 minggi bombey choylari hisoblangan. Bu choy Toshkentga ham keltirilgan bo'lib, aholi choyning tami haqida yaxshi baho berishmagan. Choy ko'rinishi jihatidan G'ulja va Chuguchak choylaridan farq qilmagan, lekin tami unga nisbatan pastroq, ya'ni bemaza bo'lgan. Shuning uchun uning narxi boshqa choylarga qaraganda uch barobar past yurgan. Teterevnikovning fikricha, O'rta Osiyoga keladigan ikki savdo yo'lidan faqat Kobul yo'li orqali tovarlar Qo'qonga keltirilgan bo'lsa, Mashhad yo'li orqali esa Buxoroga keltirilgan. O'rta Osiyo va Buxorodan Hindistonga ipak, echki tiviti, nasha va tillo, hamda otlar haydab ketilgan. «Avvallari Qo'qon va Buxorodan Hindistonga 1000 tuyagacha ipak olib ketilgan, lekin endilikda deb yozadi Teterevnikov, - ipak narxi tushib ketganligi sababli umuman kam olib ketilmoqda»<sup>25</sup>. Muallif Toshkentdan jo'natilgan rus tovarlarining Kobulga yetib bormayotganligidan tashvishlanadi, chunki bu tovarlar ularning talabiga javob bermagan. Albatta Kobulda va boshqa joylarda juda tez sotilgan turonliklarning «latta» deb ataladigan ipak matolari va tillo parchasi bundan istisno. Rus misi Kobulda yaxshi xarid qilingan. Lekin Buxoro amiri afg'onlar bilan janjallashib qolgani sababli mis va otlarni afg'onlarga

---

<sup>25</sup> Тетереvников А.Н. Очерк внутренней торговли...с. 55.

o'tkazmay qo'ygan. Ipakdan keyingi o'rinda Kobulga jo'natiladigan tovar nasha bo'lib, bir yilda O'rta Osiyodan 200 tuyagacha nasha ortilgan karvonlar jo'nagan. Nasha Hindistonga kontrabanda yo'li bilan keltirilgan va asosan nasha savdosi bilan Qo'qon xonligi shug'ullangan. O'z navbatida Qo'qon xonligi nashani Qoshg'ar va Yorkenddan olgan. Qo'qondan Hindistonga 100 tuyagacha echki tiviti jo'natilgan.

Hindiston bilan O'rta Osiyo o'rtasidagi savdo balansi quyidagicha bo'lgan. Har yili Hindistonga 12 lak tillo (lak – 100000 zolotix) jo'natilgan. Ipak og'irligi – 400 chervon, echki tiviti – 25 chervon, bir pud nasha narxi – 50 r.gacha turgan<sup>26</sup>. A.Sh.Shomansurovaning yozishicha, har yili Buxoro, Qo'qon, Toshkentdan Kobul orqali 10-15 ming tuyada yuklar 160-200 ming pud turli xil tovarlarni ortib Hindistonga olib ketilgan. Bu savdoda asosan afg'onlarning loxaniy qabilasidan bo'lgan povinda muhim rol o'ynagan. Povinda bu savdodan katta foyda ko'rgan<sup>27</sup>.

1776 yil mashhur rus tadqiqotchisi I.G.Georgining " Описание всех в Российском государстве обитающих народов, так же их житейских обрядов, вер, обыкновений, жилищ, одежд и прочих достопамятностей " nomli kitobi nashr qilingan. Asarda asosan Rossiya imperiyasida yashovchi xalqlar bilan bir qatorda ayrim Rossiyaga chegaradosh xalqlar tarixi ham yoritilgan. I.G.Georgi Buxoro xonligining qo'shni xalqlar bilan aloqalari masalalarini yoritishga alohida e'tibor bergan. Uning yozishicha, chorvachilik buxoroliklarning xo'jalik turlaridan biri hisoblanadi. Buxoro otlari yaxshi bo'lib, hindlar ularning har birini 30 dan 80 buxoro chervonigacha narxda sotib oladi, deb yozgan edi<sup>3</sup>. Buxoro savdogarlari Hindiston, Eron, Xitoy, Rossiya bilan savdo qilgan. Buxorolik savdogarlar Hindistonga, asosan, Kalkutta va Multonga savdo qilish uchun borgan. U

---

<sup>26</sup> Ўша асар. С. 56.

<sup>27</sup> Шамансурова А.Ш. К вопросу о среднеазиатско-афганских отношений в первой половине XIX в. //Взаимоотношения народов Средней Азии и сопредельных стран Востока в XVIII-начале XX в. Т.1963.с. 12.

<sup>3</sup> И.Г.Георги. Описание всех в Российском государстве обитающих народов, так же их житейских обрядов, вер, обыкновений, жилищ, одежд и прочих достопамятностей.//Пер. с нем.Ч.2. СПб.,1776. С. 66.

yerdan o'zlarinikidan ham yaxshi ipak va ip gazlamalar, dur, ziravor, yetmak ildizlari, zumrad, yoqut, damlama uchun ishlatiladigan hind shafrani (zafaron guli) va boshqalar keltirganlar. Erondan Buxoroga barxat, kamar keltirgan, buxoroliklar esa o'z navbatida Eronga Xitoydan keltirilgan kumush va reven (quritilib ko'nchilikda ishqor sifatida ishlatiladigan ravoch) jo'natgan.<sup>28</sup>

---

<sup>28</sup> Михалева Г.А, “Ўзбекистан в XVIII первой половине XIX века ремесло, торговля и пошлины” Т.,; 1991-г. С-64.

## **2.2.Buxoro amirligining Xitoy va Eron bilan tashqi savdo munosabatlari.**

Hindiston, hamda Rossiya bilan savdo ancha kuchayishi bilan, Buxorolik savdogarlar Xitoy bozorlariga ko'p qatnamay quydi. Hatto xitoyliklar ham Buxoro bozorlariga kam tashrif buyurishgan. Quyidagi faktorlar Buxoro va Xitoy o'rtasidagi savdo aloqalari zaiflashishiga olib kelgan: XVIII asrning I yarmida Buxoroda vujudga kelgan og'ir siyosiy vaziyat tufayli tashqi savdoning keskin tushib ketishi, Buxoro savdogarlari Qo'qon xonligi hududlari orqali Xitoyga borishgan, bu esa ko'p vaqt va ko'p xarajatni talab qilishi, bundan tashqari Buxoro savdogarlarini Hindiston, Afg'oniston bozor mahsulotlari qanoatlantirganligi va hokazo. Xitoyliklar asosan Qo'qon bilan savdo qilgan, qo'qonliklar Buxoroga Xitoy tovarlari - choy, kumush yombi, chinni buyumlar, marjon va har xil turdagi matolar yetkazib turgan. Shunday bo'lsada, Buxoro savdogarlari Xitoydan katta miqdorda oltin metallini xarid qilib, Buxoroga olib kelishganligi to'g'risida ma'lumotlar ham mavjud.<sup>29</sup>

Qoshg'arning Buxoro, Xiva, Hindiston, Afg'oniston va ayniqsa, Rossiya bilan tashqi savdosi Qo'qon orqali bo'lar edi. Qo'qon-Qoshg'ar savdo aloqalari yo'l qiyinchiligiga qaramay (yo'l tog'dan o'tardi) yaxshi bo'lib, karvonlar tez-tez borib turardi, chunki osoyishta edi. Bu esa, karvonlarning har hafta safarga chiqishida asosiy omil bo'lib hisoblangan. Qo'qon bilan Qoshg'ar oralig'idagi masofa 23 kunlik yo'l bo'lgan. Karvonlar 1000-1500 ot yuk bilan odatda iyun oyining boshlarida yo'lga chiqqan. Bu karvonlarga chodir, kiyimlar va oziq-ovqatlar ortilgan. Karvonda kobullik, eronlik, buxorolik, toshkentlik savdogarlar ham bo'lishgan<sup>30</sup>. P.I.Nebolsin XIX asr o'rtalarida Xivaga Qo'qondan qoshg'ar choylari keltirilganligini ma'lum qiladi. P.Nebolsining ma'lumotlari avvalo, Qo'qon bilan Qoshg'ar o'rtasidagi savdo munosabatlari juda tez rivojlangan,

<sup>29</sup> Михалева Г.А, “Ўзбекистан в XVIII первой половине XIX века ремесло, торговля и пошлины” Т., 1991-г. С-65.

<sup>30</sup> П.Небольсин. Очерки торговли России со странами Средней Азии, Хивой, Бухарой и Коканом. СПб., 1856. с. 12.

ikkinchidan, Qo'qon Qoshg'arning Buxoro, Eron, Hindiston va Rossiya bilan savdo aloqalarida vositachilik rolini bajargan, uchinchidan Qo'qon-Qoshg'ar yo'li Buxoro-Eron yoki, Xiva-Eron yo'llariga nisbatan anchagina mashaqqatli vash u bilan birga bexavotir bo'lgan, deyishga asos bo'ladi. Qo'qon va Qoshg'ar oralig'idagi savdo yo'llari noqulay tog' yo'llari orqali o'tilganligini V.Velyaminov-Zernov ham ta'kidlaydi. Uning ma'lumotlariga ko'ra, XIX asrning birinchi yarmida Qoshg'ardan Qo'qonga 300 otda ko'k va qora choy, 200 otda oq kiygiz, 50 otda xitoy idishlari va 50 otda baqqollik buyumlari keltirilgan<sup>31</sup>.

1862 yilda «Русский Вестник» jurnalida e'lon qilingan maqola ma'lumotlariga ko'ra, O'rta Osiyo xonliklariga Xitoy o'lkasidan G'ulja, Chuguchak va Qoshg'ar orqali ko'proq choy, xitoy chinni idishlari keltirilgan. Hindistondan qand, indigo, ip gazlama, kashmir sholi, Erondan yevropa tovarlari olib kelingan<sup>32</sup>.

Maqola muallifi Buxoro va Qo'qon xonliklarida oltinning kam qazib olinishi, Qoshg'ardan esa kumushning kam keltirilishi o'rtaosiyoliklarning talabini qondirmayotganligini ta'kidlaydi. Bu xulosasi bilan muallif Rossiyaning O'rta Osiyo bozorlarini qo'lga olish borasidagi faoliyatini ma'qullayotgan bo'lishi kerak. U O'rta Osiyoliklar Xitoy va Hindistondan olayotgan tovarlari: choy, qand, indigo uchun rus tillosi va boshqa rus tovarlarisiz hech narsa bilan to'lay olmaydi, deb yozgan. Shu bilan birga muallif Rossiyaning Sharqiy Turkiston bozorlariga kirib borish yo'llari xususida ham fikr bildirgan U, rus tovarlarini Kichik Buxoroga ikki yo'l bilan, birinchisi, shimoliy yo'l - G'uljadan Oqsu va g'arbiy yo'l esa Qo'qondan Qoshg'arga olib o'tish mumkinligini ko'rsatadi. Ikkala yo'l ham qorli tog'lar orqali o'tgan. Birinchi yo'lda yuklar tuyalarda, ikkinchi yo'lda esa yuklar faqat otda tashilgan. Har bir otga 8 pudgacha tovar ortilgan. Bu yo'l orqali har yili

---

<sup>31</sup> Вельяминов-Зернов В.В. Сведения о Кокандском ханстве //Вестник ИРГО. Ч. XVIII. СПб., 1856. С. 128.

<sup>32</sup> Г.Агамейстер Ю.А. О торговом значении Средней Азии в отношении к России. «Русский Вестник».Т. 41. Кн. 10. М., 1862. с. 707-708.

3500 otda tovar tashilgan. G'ulja yo'li Qo'qon yo'liga nisbatan serqatnov ekanligi e'tirof qilingan. Karvonlar Qo'qondan Qoshg'arga taxminan 400 verst masofani 18 kunda bosib o'tgan. G'uljadan Oqsugacha masofa 600 verst bo'lgan. Oqsudan Pekinga karvonlar to'rt yarim-besh oy yo'l yurishgan. Muallif Yorkand, Qoshg'ar, Oqsuni rus tovarlari uchun bozor bo'lib xizmat qilishi mumkinligini, Kichik Buxoro rus matolari va metal buyumlari haqini xitoy choyi bilan to'lashi mumkinligini e'tirof qilgan. Buning uchun avvalo rus savdogarlari uchun Kichik Buxoroda savdo qilishlariga ruxsat berilishi kerak, chunki shu vaqtga qadar musulmon bo'lmaganlar uchun u yerda savdo qilish man qilingan edi<sup>33</sup>.

1862 yilda G'arbiy Xitoyda dunganlar qo'zg'oloni sodir bo'lgan. Dunganlar qo'zg'oloni Markaziy Osiyo davlatlari hayotida faqat siyosiy jarayon bo'lib qolmay, balki iqtisodiy hayotga ham salbiy ta'sir ko'rsatgan edi. A.G.Rotchev qalamiga mansub asarda dungan qo'zg'oloniga qadar Xitoy Qo'qon, Buxoro, Xiva va boshqa davlatlar bilan qizg'in savdo aloqalarida bo'lganligini, lekin bu qo'zg'olon mazkur davlatlar o'rtasidagi savdo aloqalari rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatganligi e'tirof qilingan. Ayniqsa, bu holat choy savdosida aniq namayon bo'lgan.

O'rta Osiyoga mo'ljallangan choy karvonlari avval Urumchida yig'ilib, so'ng u yerdan yo'l ikkiga bo'lingan. Birinchi yo'l, Urumchidan G'ulja orqali Verniy, Avliyoota va Chimkentga, ikkinchi yo'l, Urumchidan Qoshg'ar orqali Qoshg'ar-Dovon yo'lidan O'shga kelgan. O'shda karvon yo'li ikkiga bo'linadi, biri O'sh-Xo'jand-Samarqand-Buxoro, ikkinchisi esa, O'sh-Qo'qon-Namangandan Toshkentga boradi.

Meyendorfnining ma'lumotlari orasida Buxoroning Eron bilan savdo aloqalari haqidagi fikri diqqatga sazavordir. U Buxoroda feruza va parcha matolari bilan savdo qilgan eronlik savdogarlarni ko'rgan. Buxoroliklar Eronga paxta, ipak matolar, movut, qalampirmunchoq, ravoch va rus tovarlari olib

---

<sup>33</sup> Г.Агамейстер Ю.А.. О торговом значении Средней Азии в отношении к России. "Русский вестник". . Т.41. Кн. 10.М., 1862. С.717.

borgan. U Buxoro qand unini Eron, Afg'oniston va asosan Peshavor orqali oladi, deb ta'kidlaydi. Shu mamlakatlardan salla uchun shol matolari, sariq kamar, gilam va feruza keltiradi. Shu xildagi savdoni davom ettirish uchun buxoroliklarga har yili 600 ta tuya kerak bo'ladi. Bu savdo Buxoro uchun Rossiya va Qashg'ardan keyingi darajada turganligini Meyendorf ta'kidlab o'tgan edi.

Buxoro xonligi haqidagi muhim ma'lumotlar A.F.Negri ekspeditsiyasining vakili E.Eversman tomonidan ham to'plangan. Uning kitobida Buxoroning ichki va tashqi savdo aloqalari yaxshi aks ettirilgan. Eversman ma'lumotlariga ko'ra, Buxoro Rossiyaning bir qator shaharlari: Troisk, Orsk, Orenburg, Astraxan, va boshqa Sharq davlatlari: Eron, Afg'oniston, Hindiston, Kashmir bilan savdo aloqalari o'rnatgan. Muallif Rossiyadan Buxoroga keltirilgan tovarlarni sanab o'tadi. U Erondan 500 ta tuyada ipak va jun kiyimlari, shol, ro'mollar va boshqa tovarlar keltirilishini xabar qiladi<sup>3</sup>.

Eversman, Buxoroga Erondan ishlanmagan feruza keltirilib, Buxoroda silliqlanganligi, Badaxshondan lazurit va gilvata keltirilganligini yozadi. Buxoroda ishlov berilmagan lazurit narxi, hajmiga qarab 20 dan 40 golland dukatigacha narxda sotilgan.

Budrin, Hindiston, Eron va Rossiyaning Buxoro savdosidagi rolini alohida ta'kidlaydi. Lekin Buxoroga keltirilayotgan va u yerdan olib ketilayotgan tovarlarning tarkibiga to'xtalmagan. U o'z e'tiborini asosan tog' ishlariga qaratgan. Buxoroliklar Hindiston, Eron va Xitoydan oltin, kumush, mis, qalay va temir olgan<sup>6</sup>. Hindistondan chit keltirilgan bo'lib, u salla uchun ishlatilgan.

Burnashevning ma'lumotlariga ko'ra, Buxoro Hindiston va Erondan tillo, kumush va hind malmali olgan. Buxoro Eronga qorako'l terisi va boshqa tovarlar eksport qilgan. Burnashev Buxoroga keltiriladigan chet el tovarlaridan

---

<sup>3</sup> Эверсман Э. Reise von Orenburg nach Buchara. Berlin. 1823.

<sup>6</sup> Будрин. Ўша асар. 30 б.

qirqdan bir miqdorida boj solig'i olinishini eslatib o'tadi. Rus savdogarlari esa o'z mablag'idan yigirmadan bir miqdorida soliq to'lagan<sup>1</sup>.

Burnashevning ta'kidlashicha, Buxoro tog'larida tillo va kumush ko'p bo'lishiga qaramasdan, buxoroliklar ularni Hindiston, Eron va Xitoydan, mis, qalayi va temirni Rossiyadan olishga harakat qilgan. Uning ma'lumotlariga asoslanib aytish mumkinki, Buxoroga chetdan tillo, kumush va boshqa ma'danlar keltirishining sababi, buxoroliklar hali tog'lardan bu ma'danlarni qazib olishning yangi texnologiyalarini bilmasligi oqibatidir.

Burnashev mamlakatning siyosiy ahvoli haqida yozib, amir Shoxmurod Hindiston, Eron, Qo'qan, Xo'jand, Toshkent va Xiva bilan harbiy to'knashuvlarda bo'lganligi, 1795 yili Buxoro Eron bilan jang qilib, juda ko'p eronliklarni asir olganligi va ularni Buxoroda qul qilib sotganligi haqida ma'lumot beradi.

---

<sup>1</sup> Бурнашев Т.С. Путешествие от Сибирской линии до города Бухары в 1794 и обратно в 1795 году //Сибирский вестник. СПб., 1818. ч.III. С.120.

### **3.2.Buxoro amirligining Rossiya imperiyasi bilan tashqi savdo munosabatlari**

XVIII asr II yarmidan boshlab, Rossiya savdo-iqtisodiy aloqalarida O'rta Osiyo xonliklari, xususan, Buxoro amirligining ahamiyati ortib bordi. Bunda birinchidan, Rossiyada rivojlanib borayotgan sanoat uchun xomashyo manbalarni topishga intilish, ikkinchidan, Osiyoda, ayniqsa Hindistonda Angliya ta'sirining kuchayib borayotganligi sabab bo'lgan. Doniyolbiy davrida Buxoro davlatining Rossiya bilan savdo-iqtisodiy aloqalarining yangi davriga tamaltoshi quyilgan edi.

Doniyolbiy otaliq 1774-yilda Ernazar Maqsud o'g'li boshchiligida boshchiligida o'z elchilarini Rossiyaga jo'natib, yaqin diplomatik va savdo aloqalarini o'rnatgan. Bu paytda u yerda Yekaterina II (1762-1797-yy.) hukmronlik qilar edi. Ikki davlat o'rtasida savdo aloqalari o'rnatilishida Ernazar elchining o'ziga yarasha o'rni bo'lgan. Ernazar elchi - Mulla Muhammad Ernazarbiy Maqsud o'g'li XVIII-asrda yashab o'tgan yirik savdogar va elchi. Ernazar elchi Buxoro amirligining Rossiyaga yuborgan elchilari rahbari bo'lgan. U madrasada o'qigan bo'lib, 1745 yildan boshlab, Rossiyaga bir necha marta tijorat maqsadida borib, imperator Yelizaveta Petrovna qabulida bo'lgan. Savdo ishlari bilan Xuroson va Hindistonga ham borgan. Keyinchalik Buxoro hukmdori Doniyolbiy otaliq tomonidan 1774-76-yillarda va 1779-80-yillarda Rossiyaga yuborilgan 2 ta elchilik missiyasiga boshchilik qilgan.<sup>34</sup>

Birinchi elchilik tarkibida 64 kishi va 20 ta ozod qilingan rus asirlari bo'lgan. Ular 1774 yil 1 sentyabrda Ashtarxon (Astraxon) shahriga kelishgan va Astraxon generalgubernatori P.Krechetnikov huzurida bo'lishgan. So'ngra 1775-yil 14-mart kuni Moskvaga yetib kelishgach, Rossiya imperatori Yekaterina II tomonidan rasmiy ravishda qabul qilingan (1775.5.4). Bu elchilik natijasida Buxoro bilan Rossiya o'rtasida mustahkam savdo aloqalari yo'lga qo'yilgan, savdo karvonlari xavfsizligi uchun Emba daryosi bo'yida qal'a qurilgan. Rossiyaning chegara shaharlari: Orenburg, Astraxonda Buxoro

<sup>34</sup> <http://uz.wikipedia.org/ernazar-elchi/...>

savdogarlaridan olinadigan bojxona solig' i kamaytirilgan, ichki shaharlarda O' rta Osiyo savdogarlarining erkin harakat qilishi kafolatlangan.

Ikkinchi elchilik 1779 yil o' rtda boshlangan, elchilik tarkibida 28 kishi bo' lgan. Ernazar elchi boshchiligida elchilar 1780-yil yanvarda Moskva va Peterburgga yetib kelishgan. Elchilik natijasida buxorolik savdogarlar Rossiyadan ko' p miqdorda mis, po' lat va cho' yan sotib olishga muvaffaq bo' lganlar. Ernazar elchi Rossiyada o' z vazifasini to' liq uddalagach, 1795-yilda Buxoroda madrasa qurdirgan. Amir Shohmurod tomonidan Mulla Muhammad Ernazarbiy Maqsud o' g' li Turkiyaga elchi sifatida yuborilgan va o' sha yerda yashab vafot etgan.

Doniyolbiy otaliqdan so'ng Amir Shohmurod taxtga kelgach, tashqi savdoni rivojlantirishda Rossiya bilan savdo aloqalariga alohida e'tibor qaratdi. Uning davrida Buxoroning Rossiya bilan savdo aloqasi o'tgan davrlarga nisbatdan sezilarli darajada kuchaydi. Buxoro savdogarlari Rossiyaga ham asosan paxta va ipak mahsulotlarini sotish uchun olib borishgan, u yerdan esa muynali mahsulotlar, sandiqlar, fabrikalarda ishlab chiqarilgan metall buyumlar, turli xil matolar va boshqa turdagi mollarni olib ortga qaytishgan. Buxoro savdogarlari Rossiyaga hind mollarini ham yetkazib turgan, u yerdan rus mollarini Afg'onistonga olib borib sotishgan. Buxoro bilan Rossiya o'rtasidagi savdo aloqalarida qozoqlar ham rol o'ynagan. Qozoqlar savdogarlarni ma'lum bir haq evaziga Orenburggacha kuzatib borishgan.<sup>35</sup>

Amir Shohmurod davrida Rossiya bilan savdo aloqalari qanchalik rivojlanganligini quyidagi ma'lumotlarni ko'rib chiqamiz. O'rta Osiyo, xususan, Buxoro davlatining Orenburg guberniyasi orqali Rossiya bilan savdo aloqalari bo'yicha 1745-1774-yillar davomida to'plangan hujjatlarda ma'lum bo'lishicha Buxorodan Orenburgga 35 yil ichida jami 5.957.426 rubl miqdordagi tovar kiritilgan bo'lsa, shu muddat ichida Orenburgdan Buxoroga jami 5.047.113 rubl miqdorda tovar olib kelingan.

---

<sup>35</sup> Записки о Бухарском ханстве. (Отчеты П.И.Демезона и И.В.Виткевича). М.1983. с-147

Endi Amir Shohmurod davridagi holatni qarab chiqamiz. Orenburg guberniyasining 1787-1796-yillardagi hujjatlarda 10 yil davomida Orenburgga O'rta Osiyodan jami 4625861 rubllik tovarlar kirgan bo'lsa, shundan 4.158.316 rubllik tovar Buxoro savdogarlariga, 467.545 rubllik tovar Xiva savdogarlariga tegishli bo'lgan. Xuddi shu davrda Orenburgdan Buxoroga 3.680.869 rubl, Xivaga esa 467.545 miqdordagi tovarlar olib chiqilgan.<sup>36</sup>Shundan ko'rinib turibdiki, Amir Shohmurod davrida Buxoro O'rta Osiyo mintaqasida Rossiya bilan savdo aloqalar qilish bo'yicha yaqqol yetakchi o'rinni egallagan.

Rossiya imperiyasida hukmdorlar almashganligi sababli Amir Shohmurod Rossiya bilan diplomatik va savdo aloqalarini yanada mustahkamlash maqsadida 1797-yilda Sankt-Peterburgga Polvonquli boshchiligida o'z elchilarini jo'natadi. Rossiyaning yangi imperatori Pavel I elchilarni yaxshi kutib olgan va ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishini ma'lum qilgan.

Amir Shohmurod hukmronligidan keyin ham Buxoroning Rossiya bilan savdo aloqalari rivojlanishda davom etdi. Orenburgda 1804- yili Buxoro amirligi savdogarlarining qarorgohi qurilib, unda 20 xonadon istiqomat qilgan. Ular Rossiya bilan Buxoro amirligi o'rtasidagi savdoda muhim o'rin tutganlar. Qarorgoh ahli 1812- yilda Napoleon armiyasiga qarshi janglarda faol ishtirok etgan. 1825- yilga kelib savdogarlar qarorgohi kengayib, xonadonlar soni 30 taga yetdi. Ularning ko'pchiligi hunarmandlar (novvoylar, savdogarlar) bo'lib, o'z mahsulotlarini shu yerda sotuvga tayyorlaganlar. Buxorodan yo'lga chiqqan karvon 2 oyda Orskka yetib borardi. Ba'zida savdo karvoni 5 mingtagacha tuyadan iborat bo'lardi.

---

<sup>36</sup> Михалева Г.А, "Ўзбекистан в XVIII первой половине XIX века ремесло, торговля и пошлины" Т., 1991-г. С-83.

Chulkov Orenburg savdosini tahlil qilib, Rossiya Sharq mamlakatlari – O'rta Osiyo, u orqali esa Hindiston va Eron bilan savdo qilgan, degan xulosaga keladi. Uning fikricha, O'rta Osiyo va uning qo'shni davlatlar bilan aloqalarini yanada rivojlantirish uchun Rossiyada Sharq xalqlari manfaatlariga mos keladigan ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish masalasini ko'tarib chiqqan. Is'tedodli rus iqtisodchisining fikri rus savdo doiralarining manfaatlarini ifoda qilardi va Rossiyaning qo'shni Sharq davlatlariga o'zining ta'sirini ko'rsatish istagidan dalolat berardi. Chulkov ma'lumotlariga ko'ra, Buxoro, Xiva va Turkmanistondan Rossiyaga tillo, kumush, hind va boshqa mamlakat mollari, lazurit toshi (ko'k rangli qimmatbaho tosh), buxoro va sheroz qorako'li, parcha, har xil bo'z, toshlar, olmos, yoqut, lal, zumrad, darmana urug'i va boshqa tovarlar keltirilgan<sup>3</sup>. Shunday qilib, Chulkovning bergan ma'lumotlari ko'rib o'tilayotgan davrda Orenburg Rossiyaning boshqa sharq davlatlari bilan savdo aloqalarida alohida o'rin eallaganligini va hattoki, Rus savdosining sharq davlatlari bilan aloqalarida asosiy savdo markazi rolini bajarganligini tasdiqlaydi. Lekin shu narsani eslatib o'tish joizki, na Chulkov va na undan oldingi mualliflarning asarlarida Orenburgga qancha miqdorda qanday tovarlar olib kelinganligini tasdiqlovchi ma'lumotlar aniq berilmagan.

Chernyaev ham 1865 yil 23 aprelda O'rta Osiyo davlatlari bilan Rossiyaning savdo aloqalari savdogarlar uchun qulay va xatarsiz bo'lishi kerakligini ta'kidlagan. Uning fikricha, Rossiyadan Qo'qonga temir, mis, po'lat, cho'yan va temir buyumlar, chit va sifatsiz gazmollar, baxmal, fayansli kosalar, kichiq oynaklar va charm olib kelingan. Rus savdogarlarining foydalari bojxona tufayli kamaygan bo'lsada, Rossiyaning xonlik bilan savdo aloqasi miqdori oshib borgan: 1758 yildan 1855 yilgacha eksport 174.000 dan 2.171.000 kumush rublga, import esa 37.000 dan 676.000 kumush rublga oshgan. 1840-1850 yillarda O'rta Osiyo bozorida rus va ingliz tovarlari raqobat qildi.

---

<sup>3</sup> Чулков М. Чулков М. Историческое описание Российской коммерции при всех портах и границах от древних времен до ныне настоящего и при всех преимущественных узаконений по оной государя Императора Петра Великаго и ныне благополучно царствующей Государыни Императрицы Екатерины Великия. Т.2. Кн.: 3. М., 1785. С. 357.

Rossiyadan keltirilgan tovarlarning ko'payishi ingliz savdosini sindirdi. Rossiyadan ayniqsa, metall va metall qurollar, asbob-uskunalar va bo'yoqlar ko'p keltirilgan edi.

Xonlikdagi, chegaradagi ayrim voqealar vaqti-vaqti bilan savdo ishlariga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatar edi. Misol, 1841 yildan Buxoro-Qo'qon urushining boshlanishi oqibatida 1845 yilgacha savdo munosabatlari sustlashdi. 1850-60 yillardagi taxt uchun kurash ham shunday oqibatlarni keltirib chiqargan edi. Chegarada noqonuniy boj olish va qaroqchilarning ko'payishi ham 1860-yillarda savdoga salbiy ta'sir ko'rsatdi. 1853-yillardan boshlab Rossiyaning harbiy harakatlari ham savdoga juda yomon ta'sir ko'rsatdi. Umuman, Qo'qon xonligining Rossiya bilan savdo aloqalari ham ijobiy, ham salbiy oqibatlar keltirib chiqardi. Qo'qonda savdo tufayli qishloq xo'jaligining ayrim tarmoqlari yaxshi rivojlandi, rus madaniyati kirib keldi. Lekin shu bilan birga xonlik asta-sekin xom-ashyo bazasiga aylana bordi, rus sanoat korxonalari buyumlari mahalliy hunarmandchilikning ayrim tarmoqlarini sindirdi.

XVIII asrning oxiri va XIX sarning boshi Buxoro xonligi bilan Rossiya o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tarixida savdo va diplomatik aloqalarning kengayishini va mustahkamlanishi bilan xarakterlanadi. Bu vaqtlarda Buxoro xonligi bilan Rossiya o'rtasidagi aloqalar, asosan, ikki tarafdan: Sibir va Orenburg savdo yo'llari orqali olib borilib, Orenburg orqali bo'lgan munosabatlarda ayniqsa ahamiyatlidir.

XVIII asrning oxiridan boshlab Rossiya bilan O'rta Osiyo xonliklari, jumladan Buxoro xonligi o'rtasidagi savdo aloqalarining rivojlanishida Orenburg savdo yo'li katta ahamiyatga ega bo'lib, Orenburg shaharining uzi Rossiya va O'rta Osiyo savdosida ayiriboshlashning markaziga aylandi. Chunki, bu vaqtlarda O'rta Osiyo savdogarlari uchun Rossiyaning ko'pgina ichki yarmarkalarida savdo qilishga ruxsat etilmay, odatda ular uz mahsulotlarini ko'proq Orenburgda rus sanoat mollariga ayirbosh qilardilar. Shuningdek, Rossiya savdogarlari ham O'rta Osiyoga kamdan kam

qatnab,Rossiyaning sanoat mollari O'rta Osiyo bozorlariga deyarli mahalliy savdogarlar vositasi bilan olib kelinar edi.

XVIII asrning oxirida Rossiya-Buxoro savdosining hajmi va xarakterini 1787-1796 yillarida Rossiya va Buxoro o'rtasida olib borilgan tovar oborotidan ko'rish mumkin.Masalan,mana shu o'n yil ichida Rossiyadan Buxoroga 3 million 680,9 ming so'mlik mol chiqarilgan bo'lsa,Buxorodan Rossiyaga esa 4 million 150,9 ming so'mlik mahsulot chiqarilgan.<sup>37</sup>

Bu davr ichida Buxoro va Rossiya savdosining umumiy hajmi unchalik katta bo'lmasa ham,lekin u tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda edi. Masalan, 1787-1790 yillar davomida Orenburg orqali Buxorodan Rossiyaga o'rtacha hisob bilan yiliga 360 ming so'mlik, 1790-1793 yillar ichida yiliga 405 ming so'mlik va 1793-1796 yillarda yiliga 465 ming so'mlik mol chiqarilgan bo'lsa,XIX asrning boshiga kelganda, 1801 yilning o'zidayoq, Buxorodan Rossiyaga chiqariladigan mahsulotning hajmi 732,2 ming so'mga yetadi.

Rossiyadan Buxoroga chiqoriladigan mollarning miqdori esa 547 ming so'mgacha oshadi. Bu farqlar Orenburg orqali Buxoro bilan Rossiya o'rtasidagi savdo sotiq oxirgi 4-5 yil davomida avvalgi o'n yil ichida maksimal mol chiqarilgan yilga qaraganda yana 50 protsentga oshganligini ko'rsatadi.

Rossiya-Buxoro savdosining bunday sur'atlar bilan rivojlanishi asosan Rossiyada kapitalistik munosabatlarning o'sishi bilan bog'liq bo'lib,rivojlanib borayotgan rus tuqimachilik sanoati ko'proq O'rta Osiyo hom ashiyosi–paxtaga muhtoj edi.Shuning uchun ham XVIII asrning oxiridan boshlab,O'rta Osiyo Rossiya sanoatining eng zarur va eng muhim xomashiyo manbalaridan biriga aylanib,paxta va yigirilgan ipdan tashqari ,Rossiyaga hom teri, qorako'l, ipak, revand va quruq mevalar chiqarilardi.

1801 yilda Buxorodan Rossiyaga 483.7 ming so'mlik yigirilgan ip chiqarilib,u umumiy savdo oborotining 68 protsentini tashkil etsa;19.5 ming

---

<sup>37</sup> Бунаков Е.В. К вопросу о сношениях России с среднеазиатскими ханствами в XIX в., “Советское востоковедение”, т. II, М.-Л., 1941, С 9-10

so'mlik paxta,yoki savdo oborotining 2 protsentini,42.5 ming so'mlik gazlama,yoki savdo oborotining 5 protsentini,101.7 ming so'mlik xom teri,yoki savdo oborotining 13 protsentini,45.8 ming so'mlik qorakul,yoki savdo oborotining 6 protsentini,25.7 ming so'mlik revand,yoki savdo oborotining 3 protsentini va qolgan boshqa xildagi mahsulotlar savdo oborotining 3 protsentini tashkil etardi<sup>38</sup>. Demak, XIX asrning boshida Buxorodan Rossiyaga chiqariladigan mahsulotlar ichida yigirilgan paxta ipi bilan xom paxtani o'zi umumiy savdo oborotining 70 protsentini tashkil etadi.

Rossiyaga olib boriladigan xomashiyo ichida paxtaga nisbatan yigirilgan ipning salmogi kattaligi hali bu vaqtlarda Rossiyada ip yigiruv fabrikasi mavjud emasligini ko'rsatadi.Haqiqatdan ham 1805 yilda Rossiyada 59 tuquv va 5 gazlama buyash va pardozlash fabrikalari bo'lsa-da,ammo bir dona ham ip yigiruv fabrikasi bo'lmagan. Shuning uchun ham to'qimachilik sanoatini xomashiyo bilan ta'min etishda ko'proq yarim fabrikat-yigirilgan paxta ipi talab etilib,bu yarim fabrikat Rossiya va O'rta Osiyo,jumladan Buxoro savdosining asosini tashkil etardi. Bu vaqtlarda Rossiyadan Buxoroga asosan metal,temir,mis,pulat,chuyan,kumush va oltin,shuningdek mo'yna,charm,movut va boshqalar chiqarilib,metallar Rossiya va Buxoro savdosida birinchi o'rinda turardi.

1801 yilda Rossiyadan Buxoroga 217,7 ming so'mlik oltin chiqarilib,bu umumiy savdo oborotining 40 protsentini tashkil etsa, 112 ming so'mlik movut va boshqa xildagi tuqima mollar, yoki umumiy savdo oborotining 25 protsentini, 83 ming so'mlik koshenil qizil buyog'i,yoki savdo oborotini 16 protsentini, 76 ming so'mlik mo'yna, yoki savdo oborotining 15 protsentini,16 ming so'mlik charm,yoki savdo oborotining 3 protsentini va boshqa xildagi molar chiqarilib,ular savdo oborotining 5 protsentini tashkil etardi.<sup>39</sup>

---

<sup>38</sup> Бунаков Е.В. К вопросу о сношениях России с среднеазиатскими ханствами в XIX в., "Советское востоковедение", т. II, М.-Л., 1941, С. 28.

<sup>39</sup> Бунаков Е.В. К вопросу о сношениях России с среднеазиатскими ханствами в XIX в., "Советское востоковедение", т. II, М.-Л., 1941, С. 28-29.

O'rta Osiyoda Rossiyadan keltiriladigan metallarga bo'lgan talabning ortib borishi, asosan, bu vaqtlarda O'rta Osiyo xonliklarida iqtisodiy ko'tarilish natijasida shaxarlarning o'sishi va ishlab chiqarish korxonalarining, ayniqsa, degrezlik korxonalarining kengayishiga bog'liq edi. Chunki O'rta Osiyo xonliklarida ishlab chiqarish ko'chlarini zaif bo'lganidan tog' sanoati tamoman rivojlanmagan bo'lib, hali mahaliy metal ishlab chiqarilmas edi. Buxoroda ishlab chiqariladigan metal bo'yumlar deyarli Rossiyadan keltiriladigan metallar xisobiga ishlanib, Rossiya misidan turli xil ro'zg'or bo'yumlardan tashqari, chaqa pul zarb qilinardi. Rossiya po'lati, temiri va chuyani qishloq xo'jalik asboblari, qurol-yarog'lar va boshqa bo'yumlar ishlab chiqarilardi. Rossiyadan oltin va kumush pul shaklida keltirilib, ulardan oltin pul-tilla va kumush tanga zarb qilinardi. O'rta Osiya bozori uchun eng kerakli va umumiy talabga sazovor bo'lgan metallarni O'rta Osiyoga chiqarish to XIX asrning boshigacha man qilingan edi. Ammo O'rta Osiya xonliklari bilan Rossiya o'rtasidagi munosabatlarning yuksalib borishi chor hukumatini 1801 yildan boshlab mazkur bozorga metal chiqarish uchun ruxsat berishga majbur edi.

Garchi Rossiya va O'rta Osiyo o'rtasidagi savdo aloqalari jonlanib borayotgan bo'lsada, lekin uni normal xolda olib borilishiga xonliklarni o'zaro olib brogan feodal urushlar va savdo yo'llaridagi talon-tarojliklar anchagina to'sqinlik qilardi. XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshida savdo yo'llaridagi notinchlik avvalgidan ham kuchayadi. 1799 yilda Do'rtqorin qabilasidan bo'lgan Sari Oltoy va Qora Oltoy boshliq qozoqlarning bir guruppasi Buxoroga ketayotgan savdo karvonini talab, uni 295 ming so'mlik molini o'zlari bilan olib ketganlar.

Buxoro amiri Xaydarning Rossiya imperatori Aleksandr I ga yozgan xatida, Rossiyaga qarshi fransuzlarning hujumi boshlangan vaqtlarda Buxoro savdogarlari qozoqlarning talonchilik guruhlaridan talon-taroj etilganligi to'g'risidagi xabar bayon qilingan. XIX asrning boshiga kelganda Buxoro-Rossiya savdo aloqalarining borgan sari yuksalishi natijasida, birinchi navbatda

savdo yo'llarining xavfsizligini taminlash va savdo munosabatlarini yanada mustahkamlash bu ikki davlat o'rtasidagi diplomatik aloqalarning asosiy vazifalaridan biriga aylandi.

1797 yildayoq Orenburg general-gubernatori Baron Ingelstrom O'rta Osiya xonliklari bilan savdo munosabatlarini kengaytirish va ularni normal holda olib borish uchun karvon yo'llarini xavfsizligini ta'min etishda savdo karvonlarini O'rta Osiyo bozorlariga doimiy suratda harbiy soqchi bilan ko'zatishni, mahaliy O'rta Osiyo savdogarlari uchun Rossiyaning ichki yarmarkalarida savdo qilishga ruxsat etilishini va Orenburgda O'rta Osiyo bozorlarini muntazam o'rganuvchi rus savdo muassasalarini barpo etishni taklif qilgan edi.<sup>40</sup>

O'rta Osiya bilan savdoni rivojlantirish maqsadida XIX asrning chor hukumati mahaliy O'rta Osiyo savdogarlariga Rossiyaning ichki rayonlarida va rus yarmarkalarida, birinchi navbatda Nejedorod yarmarkasida savdo qilish uchun ruxsat etdi. Orenburg general-gubirinatorining savdo karvonlari qatnaydigan yo'llarining xavfsizligini tamin etish uchun karvonlarni qurollangan konvoy bilan O'rta Osiya bozorlariga kuzatish to'g'risidagi taklif esa, 1803 yilga kelib amalga oshdi.<sup>41</sup>

1803 yil iyul oyida Orsk krepostidan savdo karvonini Buxoroga birinchi marta harbiy eskort mudofaasi ostida junatishdi. Harbiy soqchilar bilan kuzatilayotgan savdo karvoni bilan elchi va saforatning boshlig'i Gaverdovskiy, doktor Bolshoy, karvonboshilardan Ivanov va Bagdanovich, tarjimonlardan Bekjonov va Bekchurinlardan iborat Buxoroga rus elchiligi yuborildi. Rus savdo karvoni 1803 yil, 23 iyulda Orsk krepostidan chiqib, Sirdaryoning Maylibosh kechuviga 30 chaqirim qolganda qozoq va xivaliklardan tashkil topgan talonchilik guruhlari bu kechuvning atrofiga joylashganliklarini eshitib, Buxoroga bormasdan orqaga qaytdi. Lekin qozoqlar karvonning

---

<sup>40</sup> Бунаков Е.В. К вопросу о сношениях России с среднеазиатскими ханствами в XIX в., "Советское востоковедение", т. II, М.-Л., 1941, С 10-11.

<sup>41</sup> Муҳаммаджонов А.Р., Неъматов Т.Н. Бухоро ва Хеванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар. Т.; Фанлар Академияси нашриёти. 1957 й. 14-15 бетлар.

orqasidan quvib yetib,unga hujum qiladilar.Natijada karvonni talon-taroj etib,harbiy o'triyatning ko'pgina qismini,elchilikning a'zolaridan doktor Bolshoyni va elchilikning boshlig'i Gaverdovskiyning rafiqasini asir qilib,o'zlari bilan olib ketadilar.

Buxoro va Rossiya savdo aloqalarining yuksalishi bilan bu ikki davlat o'rtasidagi diplomatik munosabatlar ham tobora mustahkamlanim bordi.1804-1808 yillarda Buxoro xonligidan Rossiyaga Miralouddin, 1816 hamda 1819 yilda Mirza Muhammadyusuf qo'rchiboshi boshliq elchiliklar yuborildi. Rossiya ham Buxoro xonligi bilan aloqalarni muntazam olib borish uchun Buxoroga o'z elchi va missiyalarini yuborardi. Masalan,1803 yilda Goverdovskiy, 1809 yilda Abdulnosir Subhonqulov elchilari va 1820 yilda A.F.Negri boshliq katta diplomatik missiya yuboriladi.<sup>42</sup>

XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshida Buxoro xonligi bilan Rossiya o'rtasida olib borilgan diplomatik munosabatlar,asosan,ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va ularni normal holda va muntazam olib borishga qaratilgandir. XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshida Buxoro bilan Rossiya munosabatlari to'g'risida keltirilgan bu qisqa ma'lumotlardan qo'yidagi xulosaga kelish mumkin:

1)Rossiyada sanoatni rivojlanishi va uning xomashiyoga bo'lgan talabining ortishi bilan xomashiyo manbai va sanoat mollarining bozori sifatida O'rta Osiyoning ahamiyati oshdi;

2)rus hukumati O'rta Osiyo bilan savdo aloqalarini kengaytirish uchun harakat qilib,XIX asrning boshida Rossiyadan O'rta Osiyo bozorlariga metal chiqarishga va mahaliy O'rta Osiyo savdogarlariga Rossiyaning ichki yarmarkalarida savdo qilishga ruxsat etdi;

3)o'zaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi uchun bu vaqtlarda asosiy to'sqinliklardan biri Qozog'iston cho'llaridagi talonchilik bo'lib, Rossiya bu

---

<sup>42</sup> Мухаммаджонов А.Р., Неъматов Т.Н. Бухоро ва Хеванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар. Т.; Фанлар Академияси нашриёти. 1957 й. 17-18 бетлар.

talonchiliklardan savdo karvonlarini mudofaa etish uchun birinchi marta karvonlarni harbiy otryad bilan kuzatishni uyushtirdi;

4)Buxoro ham,Rossiya ham o'zaro iqtisodiy aloqalardan manfaatdor bo'lib , o'z diplomatik aloqalarida bu savdoni kengaytirishga va uni muntazam olib borishga harakat qiladi.

XIX asrning 30-50 yillarida Buxoro xonligi bilan Rossiya o'rtasidagi munosabatlar qayt qilinar ekan, avvalo, bu munosabatlarning asosini tashkil etgan iqtisodiy aloqalar va ularning umumiy xolati ustida biroz to'xtab utish lozim. Bu vaqtlarda Buxorodan Rossiyaga chiqariladigan mahsulotlarining asosi: paxta, yigirilgan ip va mahalliy to'qima ip gazlamalardan iborat bo'lib, paxta bilan yigirilgan ip Buxoro eksportining 25 protsentini, ip gazlamalar ham 25 protsentini tashkil qilardi. Bulardan tashqari, Buxorodan gilam, har xil mo'ynalar va quruq mevalar chiqarilar edi. Buxorodan Rossiyaga chiqariladigan mahsulotlarning umumiy hajmi 1837-1839 yillar uchun berilgan ma'lumotlar bo'yicha, yiliga o'rta hisob bilan, 264 ming so'mdan to 3.550 ming so'm orasida tebranib turgan bo'lsa, Rossiyadan Buxoroga keltirilgan mahsulotlarning umumiy hajmi yiliga, o'rta hisob bilan olinganda, 1.180 ming so'mdan to 1 600 ming so'mgacha yetib borgan edi.<sup>43</sup> Xuddi shu vaqtlarda Rossiyadan Buxoroga chiqariladigan mahsulotlar, asosan,to'qima ip-gazlamalar, movut, charm; metallardan: mis, temir, chuyan, metal buyumlar, oltin va bo'yoqdan iborat edi.

N.Xanikovning bergan ma'lumotlariga qaraganda,Rossiyadan Buxoroga 1830 yilda 1 million 834 ming 571 so'm 80 tiyinlik mol chiqarilgan bo'lsa,1840 yilga kelganda Buxoroga olib kelingan rus mahsulotlarining umumiy hajmi 3 million 283 ming 654 so'mgacha oshib borgan edi.<sup>44</sup> XIX asrning 30-40 yillari davomida Rossiya va O'rta Osiyo xonliklari o'rtasidagi savdo aloqalarining yangi xarakterli holatlaridan biri: bir tomondan,O'rta Osiyodan Rossiyaga olib boriladigan mahsulotlar ichida paxtaning hajmi yigirilgan ipga nisbatan,ikkinchi

---

<sup>43</sup> Бунаков Е.В. К вопросу о сношениях России с среднеазиатскими ханствами в XIX в., "Советское востоковедение", т. II, М.-Л., 1941, С. 17-18

<sup>44</sup> Ханьков Н. Описание Бухарского ханства. СПб., 1843. с. 171.

tomondan, Rossiyadan O'rta Osiyo bozorlariga olib kelinadigan mollarning orasida tayyor mahsulotning jumladan to'qima ip-gazlamalarning solishtirma og'irligining asta-sekin orta borishidan iborat edi. 1834-1840 yillar ichida Rossiyadan O'rta Osiyoga olib kelingan mahsulotlar umumiy hajmining 50-60 protsenti tayyor mahsulotdan iborat edi.<sup>45</sup>

---

<sup>45</sup> Бунаков Е.В. К вопросу о сношениях России с среднеазиатскими ханствами в XIX в., "Советское востоковедение", т. II, М.-Л., 1941, С. 17-18

## **Xulosa**

O'zbekistonning ko'p ming yillik tarixida Buxoro amirligi alohida ahamiyatga ega bo'lgan davlat sanalgan. Amirlik tarixiga nazar tashlansa, unda amirlikning tashkil topishidan boshlab, so'nggi kunlarigacha murakkab siyosiy jarayonlar, keskin ijtimoiy va iqtisodiy vaziyatlar hukm surganligini ko'rish mumkin. Shunga qaramay, amirlik O'rta Osiyodagi boshqa xonliklarga nisbatan o'ziga xos nufuzga va strategik mavqiyega ega davlat hisoblangan.

O'rta Osiyo xalqlari Xitoy, Hindiston, Afg'oniston, Eron, Rossiya kabi mamlakatlar bilan XVI-XIX asrlarda uzviy iqtisodiy savdo aloqalari o'rnatib kelgan.

XVIII asr o'rtalaridan boshlab vujudga kelgan Buxoro amirligi O'rta Osiyo xalqlarining Afg'oniston, shuningdek, Rossiya bilan savdo aloqalari o'rnatgan vositachi davlat bo'lib qolgan. Buxoroga qo'shni shaharlar va xorijiy mamlakatlardan savdogarlar kelib turgan. Shaharda yakshanba va chorshanba kunlari bozor bo'lgan.

Buxoro amirligining iqtisodiy hayotida Qo'qon xonligi, Xiva xonligi, Qashqar, Hindiston, Afg'oniston, Eron va Rossiya bilan bo'lgan savdo katta o'rinni egallagan. Buxoro karvonsaroylarida Xiva va Qo'qon xonliklari, Hindiston, Afg'oniston, Rossiyadan olib kelingan mollar ayirboshlanardi. Xitoy tovarlari Qo'qon xonligi orqali Buxoro va Xiva xonliklariga ular orqali esa Sharq davlatlariga kirib borgan. Buxoro amirligining Rossiya bilan aloqasi alohida ahamiyatga ega bo'lgan.

Malakaviy bitiruv ishida keltirilgan va tahlil qilingan savdo aloqalari haqidagi ma'lumotlar nafaqat Buxoro amirligining tashqi iqtisodiy aloqalari to'g'risida, hattoki, xonlikning ijtimoiy xo'jalik hayoti haqida ham to'liq tasavvur qilishga imkon beradi.

Xulosa o'rnida, shuni aytish joizki, Buxoro amirligining Hindiston, Afg'oniston va Eron o'rtasida turli tarixiy davrlarda qanday siyosiy vaziyat

hukm surishiga qaramay, bu mamlakatlarning xalqlari doimo o'zaro iqtisodiy savdo aloqalarida bo'lganlar.

Bu davlatlar bilan olib borilgan savdo sotiq aloqalarini quyidagicha izohlash mumkin:

1. Buxoro amirligi ichki savdosi qo'shni mamlakatlariga qaraganda ancha yaxshi yo'lga quyilgan, bundan tashqari ichki mahsuloti salmog'i ham juda yuqori bo'lgan.
2. Buxoro amirligi O'rta Osiyo mintaqasida Afg'oniston, Hindiston va Rossiya bilan savdo munosabatlarda yaqqol yetakchi davlat bo'lgan.
3. Buxoro amirligi savdogarlari Rossiya tovarlarini Afg'onistonga, Afg'oniston va Hindiston tovarlarini esa Rossiyaga olib borib sotishgan, bunda Buxoro Rossiya va Afg'oniston uchun qulay vositachiga aylangan.
4. O'rta Osiyo xonliklarining Sharq davlatlari bilan savdo aloqalarida xivalik, buxorolik va qo'qonlik savdogarlar muhim rol o'ynagan.
3. Rus tovarlarining Sharq davlatlariga kirib borishida o'rta osiyoliklar alohida mavqe'ga ega bo'lgan.

O'rta Osiyo xonliklari o'rnida vujudga kelgan Mustaqil O'zbekiston bugungi kunda ichki va tashqi savdo munosabatlarining ko'lami, rivojlanish tezligi va jahon ahamiyatiga molik jihatlari bo'yicha Markaziy Osiyoda yetakchi, MDH davlatlari orasida 3-o'rinda, Sharq mamlakatlarining kuchli 20 ta davlatlar orasida.

Bugunda ham O'zbekiston o'z qo'shnilari bilan, Xitoy va Rossiya bilan tashqi savdo munosabatlari juda mustahkamligini ko'ryapmiz. Ayniqsa rivojlangan qudratli ikki davlat Rossiya va Xitoy bilan savdo aloqlar yildan-yilga rivojlanib taraqqiy etib bormoqda. Xususan, O'zbekiston va Rossiya munosabatlari 1992-yildan buyon mavjud bo'lib, ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning jadal sur'atda o'sishi 2004-yildan boshlab kuzatildi. Aynan o'sha vaqtlardan boshlab O'zbekiston va Rossiya o'rtasida savdo munosabatlar jonlanib rivojlanib kelyapti. 2017-yil aprel oyida O'zbekiston Respublikasi

Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rasmiy safar bilan Rossiyaga tashrif buyurdi va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan uchrashdi. Ikki davlat rahbarlari o'rtasida savdo-iqtisodiy masalaga doir bir qancha shartnoma imzolandi. O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillarda Xitoy bilan diplomatik aloqalar o'rnatdi, ikki davlat o'rtasidagi savdo aloqalar 1996-yil Shanxay Hamkorlik tashkiloti tashkil etilgandan so'ng kuchaydi. 2017-yil may oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rasmiy tashrif bilan Xitoyda bo'ldi va Xitoy Xalq Respublikasi bosh Vaziri Shin Pin bilan uchrashdi. Ikki davlat rahbarlari tomonidan O'zbekiston va Xitoy uchun muhim ahamiyatga molik diplomatik aloqalarni mustahkamlaydigan va o'zaro savdo munosabatlarni yanada rivojlantiradigan shartnomalar imzolandi.

Xalqimizga qadimdan tolerantlik bilan yondashgan holda o'zga xalqlar bilan do'stona munosabatda bo'lgan, taraqqiyot va iqtisodiyotni qadrlab kelgan, xalqimiz mehnatsevar xalq bo'lgan, bularni Buxoro amirligining savdo munosabatlari tarixini o'rganish jarayonida guvohi bo'lamiz.

## Adabiyotlar ro'yxati

1. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. Т. «Ўзбекистон» 1992.
2. Каримов И.А. «Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир».- Т.: «Ўзбекистон». 1995.
3. Каримов И.А. «Тарихий хотирасиз келажак йўқ».- Т.: «Шарқ» 1998.
4. Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қурамыз. Т.7.- Тошкент. Ўзбекистон, 1999.-Б.132-133
5. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Т.Маънавият, 2008.
6. Азамат Зиё “Ўзбекистон давлатчилиги тарихи” Т.; “Шарқ” 2001-й
7. Анке Фон Кюгельген. Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII - XIX вв.). - Алматы, 2004
8. Б.Аҳмедов Тарихдан сабоқлар. Т. Ўқитувчи. 179 бет.
9. Борнс А. Путешествие в Бухару. Т.1 – 3. – М., 1848-1849.
10. Бунаков Е.В. К вопросу о сношениях России с среднеазиатскими ханствами в XIX в., “Советское востоковедение”, т. II, М.-Л., 1941
11. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. М., 1974. с.372.
12. Валиева Д. Бухоро-Эрон алоқалари тарихига доир. //Шарқшунослик.- Тошкент.1997. № 8 Б-132-140

13. Г.Агамейстер Ю.А.. О торговом значении Средней Азии в отношении к России. «Русский Вестник».Т. 41. Кн. 10. М., 1862. с. 707-708.
14. Дониш Ахмед, История мангитской династии, Душанбе, 1967
15. Давидович Е.А., О мерах веса позднесредневековой Бухары., Душанбе, 1960 г.
16. Записки о Бухарском ханстве. (Отчеты П.И.Демезона и И.В.Виткевича). М.1983. с 76.
17. История Узбекистана в источниках. Т.1988. с.96-97.
18. Ишқуватов В.Т. Қўқон элчиларининг Россияга ташрифи // Халқ таълими. 2000 йил, 2-сон, Б. 62-64.
19. Махкамов А.А. Торговля Коканда со среднеазиатскими владениями и сопредельными странами в первой половине XIX в.//Позднефеодальный город Средней Азии. Т.: «Фан». 1990. С. 147.
20. Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных (география). Введение, перевод, примечания, указатели Б.А.Ахмедова. Т., 1977. С. 57.
21. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. М.: Наука, 1975.
22. Мир Абуль Керим Бухарский. История Средней Азии / Пер. Г.А. Мирзаева //Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т. 2. XVI-XIX вв. Иранские, бухарские и хивинские источники. -М.-Л.: АН СССР. 1938

23. Мирза Абдал Азим Сами. Таърих-и салатин-и мангитийа (История мангытского государства) /Изд. текста, предисл., пер. и примеч. Л.М. Епифановой.- М., 1962.
24. Михалева Г.А, “Ўзбекистан в XVIII первой половине XIX века ремесло, торговля и пошлины” Т,; “Фан” 1991-г.
25. Муҳаммаджонов А.Р., Неъматов Т.Н. Бухоро ва Хеванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар. Т.; Фанлар Академияси нашриёти. 1957 й. 17-18 бетлар.
26. О нынешнем состоянии некоторых областей и городов в Средней Азии //Азиатский Вестник. Т. 1. СПб., 1826. с. 229-230.
27. П.Небольсин. Очерки торговли России со странами Средней Азии, Хивой, Бухарой и Коканом. СПб., 1856. с. 12.
28. Потанин В. Показание сибирского козака Максимова о Кокандском владении.// ИРГО. 1860. С.28.
29. Разводовский В.К. Кустарное производство бумаги в Узбекистане / / Советская этнография. Т.3. М-Л. 1940. с.147.
30. Ротчев А.Г. Очерки торговли Семиреченской области (1868-1869). «Русский Вестник». 1870. № 5. Туркестанский сборник. Т. 33.20.
31. Сведения о произведениях и торговле Бухарии. Вір. из журнала «Мануфактура и торговли». 1840. Хмір. Кол. Средняя Азия. Т. 1. с. 414.
32. Сувонкулов И. “ Самарканд кадамжолари” Т,; 2006-й

33. Тетеревников А.Н. Очерк внутренней торговли Киргизской степи. СПб., 1867. с.56.
34. Филипп Назаров. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии. М.: Наука. 1968.
35. Ханыков Н. Описание Бухарского ханства. СПб., 1843. с. 175.
36. Хорошхин А.П. Очерки Кокана. / Сборник статей касающихся до
37. Хорошхин А.П. Очерки Ташкента. В кн.: Сборник статей касающихся до Туркестанского края. СПб., 1876., С.77-142.С.29.
38. Шамансурова А.Ш. К вопросу о среднеазиатско-афганских отношений в первой половине XIX в. //Взаимоотношения народов Средней Азии и сопредельных стран Востока в XVIII-начале XX в. Т.1963.с. 12.
39. Эпиграфика Востока, 1967 г., 18 выпуск, Бурнашева Р., "Монеты Бухарского ханства при Мангытах ( середина 18-начало 20 в.)
40. Эпиграфика Востока, 1972 г., 21 выпуск, Бурнашева Р., "Монеты Бухарского ханства при Мангытах (середина 18-начало 20 в.)
41. Shamsutdinov R. "Vatan tarixi" 2-jild, T.; "Sharq" 2012-y.